

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

MINHOJIDDIN MIRZO

MUHABBAT, QARSHINGDA
BU JONIM NADIR

She'rlar

TOSHKENT
«ADABIYOT»
2021

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

M 74

Minhojiddin Mirzo

M 74 Muhabbat, qarshingda bu jonim nadir [matn].
{she'rlar}/ Minhojiddin Mirzo. – Toshkent:
«Adabiyot» nashriyoti, 2021. –144 b.

Loyiha rahbari:

Sirojiddin SAYYID,

O'zbekiston xalq shoiri, Davlat mukofoti sovrindori

Mas'ul muharrir:

Gayrat MAJID

Taniqli shoir Minhojiddin Mirzoning ushbu kitobi ona xalq oldidagi mas'uliyat va go'zallik qarshisidagi muhabbat tarannum etilgan she'rlaridan jamlandi. Shuningdek, shoirning o'zi aytganidek: "Ular atayin yozilmagan, balki hayotimning turli lahzalarida yuragimni kuydirib o'tgan, anglab-anglolmaganim, tuyg'ular, armonlar, hijronlar, sog'inch va izti-roblar, hayratlar gulxanidan sachragan iltijo uchqunlaridir".

ISBN 978-9943-6958-9-4

© Minhojiddin Mirzo, 2021

© «Adabiyot», 2021

SHE'R O'ZI NIMADIR

She'r o'zi nimadir, ishqiy kalima,
Oydin buloq guli – shaffof bir tuyg'u?
Yo ko'ngil yig'isi, shuur gavhari,
Yo hayrat, yo hasrat, eng shirin qayg'u?!

She'r nima, paykonmi ruhga sanchilgan,
Yoki qalb daraxtin sirli yaprog'i?!
Balki nilufardir dilda ochilgan,
Ko'ngilda ulg'aygan Majnun titrog'i?

She'r nima, dardmi u yo zikr ajib,
"Analhaq" degan ul ko'ngilning ohi?
Dildagi jannatmi bog'lari najib,
Qayda u ruhdagi darvesh dargohi?

She'r nima, tilsimli zulmat vujudning
Qa'ridan oy kabi chiqqan ifoda?!
Ko'ngil tog'lariga qo'ngan burgutning
O'tli nigohidan to'kilgan boda? –

Anglamoq ko'yida dil so'ylar toshib,
Chin she'rki, bir ushshoq dilga ravodir.
U – mujda – yetti qat osmondan oshib,
Haqdan kelayotgan munir navodir...

QIZG'ALDOQLAR, YIG'LAMANG, KULING

Yillar o'tdi umr kitobin
Sahifasin bir-bir varaqlab.
Dastxat bildim yurak xitobin,
Yashayapman dil so'zin yoqlab.

Xazonlarning yig'isi unut,
G'unchalarning shiviri dilda.
Lek yoshligim bayot-qo'shig'i –
Qaytmay ketgan o'sha bulbulda.

Qizg'aldoqlar, yig'lamang, kuling,
Nahot, sizni payqamay ketsam.
Yo'q, tuproq ham kechirmas aslo
Bahorlarda gullamay o'tsam...

SHIVIRLAMA, SHABBODA

Shivirlama xayolim bo'lib,
Lablarimga tomizma boda.
Jonim hozir ketar to'kilib,
Shivirlama menga, shabboda.

Nafasingni o'xshatdim juda
Menga aziz bo'lgan nafasga.
Qo'y, jonimni uchirvorasan,
Zo'rg'a soldim o'zi qafasga...

Shivirlama menga, shabboda,
Qo'zg'atma dil yaproqlarini.
Ko'tarolmas endi vujudim
Bu yurakning titroqlarini.

Sochlarimni silama, ketgil,
Chidolmayman mehringga ortiq.
Qo'ygil meni, butkul unutgil,
Endi qalbim hijronga tortiq.

Shivirlama menga, shabboda,
So'ngan cho'g'ni qo'zg'ab netasan.
Qo'ygil, endi o'z holimga qo'y,
Dardim aytsam, yonib ketasan...

Shivirlama menga, shabboda...

PATQALAM

Bobo shoir nabirasiga
Demish:
– She’rda baxt bor,
Ham g’ussa.
Shunday deya og’ir xo’rsinib,
Boshlabdi u ajib bir qissa:
Yashar edi purviqor tog’lar,
Daralarda mag’rur bir burgut.
Parvoz qilsa havasda boqar
Unga pastda suzayotgan bulut.
Ozod edi burgut tog’larda,
Hurlik edi uning matlabi.
Suzar edi samo bag’rida
Ummondagi zo’r yelkan kabi.
Baxtin topdi qoyalar aro,
Juftin topdi, in qo’ydi bir kun.
Ammo uning ajab qismati
Nogoh shunday topdi-ku yakun.
Ilon hamla qildi iniga,
Bilmas, qaydan sudralib kelmish.
G’aflat bossa jufti, jo’jasi –
Zahrimorga bo’lgay-ku yemish.
O’qday birdan uchib keldi-yu,

U changallab oldi ilonni.
Samo sari quyunday uchdi
Boy bermayin bir dam imkonni.
Jang boshlandi ko’kda ayovsiz
Ikki raqib ko’b kuch sinashdi.
Ilon ko’zin cho’qidi burgut,
Lek bo’yniga u mor chirmashdi
Tang ahvolda qoldi bir lahza
Nogoh, holsiz og’a boshladi.
Vujudiga o’ralib ilon
Talvasada bo’g’a boshladi.
Sodir bo’ldi bari bir zumda
Ko’rib boshdan uchdi aql-xush.
Erk yo’lida, hayot yo’lida
Fidolikni tanladi bu qush.
U quyunday uchib keldi-yu
Ko’kka tikib bir zum ko’zini.
Qilich kabi yaltillab turgan,
Qoyatoshga urdi o’zini.
Mag’lub etdi ilonni shunday,
Ayamadi hatto hayotin.
Osmon uzra muhrlab ketdi
Ozodlikning mangu bayotin.
To’zg’ib ketdi, har yonga uchdi
Jasoratdan yodgor-xatlari.

Ozod ruhning timsoli kabi
E'zoz topdi qushning patlari.
Bu hikoya bizgacha kelmish
Necha asr-u yillar qatidan.
Shoirlarning patqalamlari,
Bilsangiz, shu burgut patidan.
Asl shoir, asl kitobni
Bejiz boshga ko'tarmas bashar.
Patqalamda yozilgan she'rda
Ozod ruhning nafasi yashar!

VATAN NADUR

Vatan nadur, so'nmagan
Yorqin yulduz – qaroqdur.
Bosh egishga ko'nmagan
Vatan – jasur Shiroqdur.

To'marisning ko'zida,
Shayx Kubroning so'zida,
Amir Temur izida,
Yonib qolgan chiroqdur.

Kim bor uni suymagan,
Furqat emas, kuymagan,
Shoh Boburni qiynagan,
U – muborak titroqdur.

Bir ifor u guldagi,
Bayotdur bulbuldagi,
Ham sog'inchdir dildagi
Mangu "Cho'li iroq" dur.

U bor yurak zarbida,
Kim o'tmadi dardida,
Manguberdi qalbida –
Zanglamagan yaroqdur.

Kim bilmas yurt-oshyonin,
Bilmas qonin-imkonin,
Topolmabdi oromin,
Bor hayoti so'roqdur...

KO'NGLIM

Aytsam, Vatan, jambil-u rayhonlaringda
ko'nglim,
Quyosh uchun taxt tikkan osmonlaringda
ko'nglim.
Ming bir tomrim tutashgan tuprog'ingdan
so'ylaymi,
Qizg'aldoqlar bayt bitgan bo'stonlaringda
ko'nglim.

Bir dillar bor bag'ringda, qalxim undan nur
totgan,
Bulbulzabon shoirlar bahorlarni uyg'otgan,
Millatim, deb kuylasam, ming yillar surilgaydir,
Mangu elga qasida, dostonlaringda ko'nglim.

Yashil baxmal qirlaring ko'k do'ppiday tizilgan,
Poyonsiz o'rikzorlar oppoq, nurdan chizilgan,
To'rt fasl ham bag'riga qut-baraka yog'ilgan,
Yer-u osmon tutashgan sayhonlaringda
ko'nglim.

Bobolardan hikmatlar so'ylar bobo chinorlar,
Kakliklaring tong sahar g'azal aytar – biyronlar,
Kaftingdan suv ichadi korako'zli jayronlar,
Xongullar xonday yurgan o'rmonlaringda
ko'nglim.

Ul Abdulla Qahhorning ulug' ko'nglin guvohi,
Har bir guli Zulfiya, Saidaning hamrohi,
Adabiyot olami – ezgulikning panohi,
Gohi Zomin, gohida Do'rmonlaringda ko'nglim.

Oxir oh-u zorlardan, armonlardan gul undi,
Ag'yorlar otgan toshlar, malomatlar ham tindi,
Istiloning zanglagan, qotil yarog'i sindi,
Shundan so'zim muattar, Cho'lponlaringda
ko'nglim.

O'tdi qancha dil ahli, Mir Alisher, Boburlar,
Mashrab, Furqat, Ogahiy, Berdaqlar-u
Sobirlar..
Kuylab yashagan kabi Muqimiydek nodirlar,
O'zim har joydaman, lek jononlaringda
ko'nglim.

Bunda bedor peshvolar niyatidan bilgulik,
Ular mehri quyoshday, butun elga yetgulik,
Har satrida baxt qushi, qanotida ezgulik –
Taftidan jon isingan farmonlaringda ko'nglim...

EY SHE'RIYAT

Men she'r izlab
So'z-la sirlashdim,
Qanday go'zal, sohir bu fasl.
Anglaganim, dil ma'vosidan
Sog'inch nuri yog'ar muttasil.

Ma'yus so'zlar kimni chorlaydi
Va yo kimga atalgan bu bayt?
Ey she'riyat, bunyoding qaydan,
Yurakdagi mehmoning kim, ayt?!

BU JON NADIR

Muhabbat, qarshingda bu jonim nadir,
Bir tomchi yoshmi u ko'zingdan oqqan.
Ashklaring bunchalar bo'lsa beqadr,
Nechun kipriklaring bu gulni taqqan?!

Bilmadim, munavvar oftobmikin jon,
Zulmatlar ketguncha qilaymi sabr.
Bag'ring lolasidan tomganmi bu qon,
Muhabbat, bilmasman, bu jonim nadir?!

QISH ERTAGI

Oppoq, harir edi borlig'ing,
Oydin eding – to'lin oy eding.
Ko'zlarimdan qochirganimda
Xayolimga sen kirib kelding.

Oppoq-oppoq orzularimga
Qiyoy boqmay kulgan chechagim.
Sendan ayro tushgandan buyon
Yulduzlarga aytgum ertagim...

Qish ham kirdi, ayoz kun bo'yi
Hasratimday yog'averdi qor.
Ushalmadi kurtaklar o'yi,
Yiroqlashib ketgandi bahor.

Chor atrof qor, go'yo sen kelding,
O'sha oydin ko'ylakda yonib.
Tashqariga yugurib chiqdim,
Xayolimga o'zim ishonib.

Yo'q, sen yo'qsan, umidvor kutdim,
Zulmat yana keldi so'rog'lab.
Yuragimga taskinlar aytdim
Kelayotgan azobga chog'lab.

Tun, umidsiz, horg'in ko'zlarim
Yumilarkan asta, ilg'adim...
Derazaga boqqancha sahar
Bir tup gulni ko'rib yig'ladim...

ORZUDAGI MUHABBAT

Dilimda yasharding, muhabbat,
Men buni bilardim, bilardim.
Marg'ilon qaydaligin bilmasam ham,
Otabek misoli yurardim.

Ishonar edim, men bir kuni
Marg'ilon borishim, sevishim...
O'shanda suvgami chiqar.. deb,
Men qancha kutganim Kumushim...

Xayolan goh kulib, goh so'lib,
Marg'ilon tomonga tortar jon.
Yulduzlar poyida o'ltirib
Ertaklar aytganda Andijon.

... Ulg'aydim, hayot ne bildim men,
Umidlar yor bo'ldi yo'limda.
Marg'ilon qayda deb izladim,
Sevgilim – Kumushim ko'nglimda.

So'ng bir kun... o'kirib yig'ladim,
Marg'ilon yo'lidan qaytarkan.
Shamollar ro'molcha tutdilar,
Ko'nglimga taskinlar aytarkan.

Marg'ilon, Marg'ilon, topib ber,
Topib ber, sevgilim – Kumushim...
...Men bilgan Marg'ilon yo'q ekan,
Nahotki, Zaynabni sevishim?!

Yo'q, yo'q, ko'ksimda bir olam –
Men o'sha diyordan kelmasman.
Ey hayot, qo'y meni, qiynama,
Sevgimni o'zgaga bermasman.

Men bilgan Marg'ilon ko'ksimda,
Ko'ksimda men bilgan Kumushim...
Zaynabim bo'lsa ham yonimda,
Qo'ymasman men uni sevishim...

Kumushim, men bilan Kumushim!
Kumushim, men bilan Kumushim!

KO'NGIL SOG'INCHI

Ko'zlaringda quyoshni ko'rib,
Erigandi muz qalbim birdan.
Boshim uzra o'riklar gullab
Nur olgandi dildagi sirdan.

Nastarinlar shivirlab mayin,
Iforlarga ko'mgach olamni,
Hayrat ila qo'lga olgandim
Qizg'aldoqlar ungan qalamni...

Qancha yillar o'tdi, fasllar,
Qaytmadi hech u sirli onlar.
Tushlarimda meni qurshar goh
Xushbo'y sochlar – sadarayhonlar.

Qor bag'rida ochilmas lola,
Muz qo'ynida gullamas daraxt.
Endi qalbim senga havola,
Bahorlarim olib ketgan baxt...

KO'KSIMGA YASHIRDIM BIR DIL SURATIN

Bekor sovurmadim munis yillarni,
Taskin bor, ertamdan sal ko'ngil to'qdir.
Tongga oshno etdim qancha dillarni,
Yillarning oldida gunohim yo'qdur.

Goh hilol, yulduzlar bilan tong qadar
Suhbatlar qurardik, uchgan vaqt – o'qdir.
Ko'nglimga naqsh solib ketgan jilvagar
Tunlarning oldida gunohim yo'qdur.

Taqdirga yo'yarlar har dil qismatin,
Endi u gullar ham, gulzor ham yo'qdur,
Ko'ksimga yashirdim bir dil suratin,
Gullarning oldida gunohim yo'qdur!

SOG'INCH

...Yarim tunda qiynaydi meni,
– Andijonga yur, – deya yurak.
– Zim-ziyo tun qayga boramiz,
Tushun, tongni kutishim kerak?!

“...Yarim tunda chiqib ketaman
Andijonga burib yo'limni.
Tong chog'ida kirib boraman.
Shabbodalar o'par qo'limni:
– Unutmabsan Onajoningni,
– Sog'indingmi Andijoningni?!
– Axir men... Bobur emasman...”

...Ochdim ko'zim, mijjalarim yosh,
Yana neni kutishim kerak?!
Yuragimda mehmon ekan-ku
Anda joni qolgan bir yurak...

VIDO

Usmon Nosir xotirasiga

O'tgan kunlarimdan rizo bo'l, ko'nglim,
Goh ochilding, gohida so'lding.
Goh irmoqday singding sahroga,
Goh ummonday limmo-lim to'lding.

Goh ko'zlarim oyga boqqanda
Shu'lalarga aylanib yonding.
O'zing to'qib ajib ertaklar,
O'zing yana unga ishonding.

Goh tuproqday yashading xoksor,
Goh qoyaday mag'rur turding sen.
Ko'zlarimda kulganda bahor,
Bu dunyoni qattiq sevding sen.

Ey, umrimning chinori, endi –
Bizni chorlar xazonrez fasli.
Bahorlarga kuch bermoq uchun
Xazon bo'lib ketsak ham, mayli.

Eh, barchasi o'tkinchi endi,
Buncha shoshar irmoqday umrim.
Tunda yulduz bo'lib uyg'onsam,
Hayotimdan rizo bo'l, ko'nglim...

RUH

Chidaysan, do'stlaring qilsa xiyonat,
Ko'tarib yasharsan dilda ranjini.
Sevgidan topmasang magar himoyat,
Bir kuni yuvarsan alam zangini.

Chidaysan xorlikka, g'am-u armonga,
Chidaysan jismingda uyg'ongan dardga.
Shunday qismat goho yordir insonga,
Yolchirsan begumon biror hamdardga.

Chidarsan qalb guling so'lsa firoqdan,
Chidarsan bir kuni tinsa shukuhing.
Ayrilsang Haq bergan yolg'iz chiroqdan –
Vujuddan norizo yashasa ruhing,
Chiday olasanmi...

ABDULLA ORIPOV MAKTABI

Qarshi shahridagi Ijod maktabi o'quvchilariga

Dunyoda qanchalar turfa odam bor,
Garchi turfa erur ular matlabi,
Lekin Vatan ishqin dilga aylab yor,
Yashagan kam erur bu shoir kabi.

Har bir she'ri ochar ko'ngil ko'zini,
Har satri millatning qaddini rostlar.
Bulbul ham tinglasa uning so'zini,
Eng buyuk maslakni anglardi, do'stlar.

Millat ozodligi, baxtini ko'rmoq
Abdulla Orifning matlabi edi.
Vatan deb shu yurtga jon fido qilmoq
Abdulla Orifning maktabi edi.

Ey shoir ukajon, xosiyatin bil,
Shu maktab yetkazar ulug' niyatga.
Vatan deb, millat deb yashay olgan dil
Daxldor bo'lajak abadiyatga!

XIVA OSMONIDAGI TURNALAR

Xiva osmonida aylanar, ajab,
Ziyorat qilganday bir tup turnalar.
Ogahiyning qushga aylangan ruhi,
Yo, Feruz, O'tarmi... qalbm tirnalar.

Ketgisi kelmagan qadrdonlarday,
Huv, anov sardori Manguberdimi?
Yurtim, hurligingni muborak etib,
Atay bahoringni qutlab keldimi?

Kim bilar, Xorazmiy, Beruniymi, kim?
Turnalar "quv-quv"lab go'yo chalar ud.
Nazm tasbehida marvarid shoda –
Balki u haqsevar Pahlavon Mahmud?

Ular ko'p oq bodroq – o'rik guliday,
Mangu diyorimning mangu posboni.
Ezgulik sochmoqda ko'kdan zaminga
Chamanga aylanmish Xiva osmoni.

Bizni tark etmaydi o'tganlar yodi,
Muborak nomlari tillarimizda.
"Quv-quv"lab turnalar aylanaverar
Xiva osmoniday dillarimizda...

KUZ XAYOLLARI

Oltin yaproqlarga boqib o'yladim
Umrimning bir yilin o'tib ketganin.
Xazonrez bog'lardan o'qib boraman
Kuzakning zaminga yozib-bitganin.

Kechagi yam-yashil yaproqlar bunda
Beruh-u za'faron qalashib yotar.
Kuzakning yellari uzib ularni
Qismat shamollarin bag'riga otar.

O'ksib termulaman, o'ylarim cheksiz,
Daraxt shoxlarida necha ming yaproq.
Qay biri tepada, qay biri pastda,
Munavvar oftobning nuridan yiroq.

Ishqilib, yuqori joylashganlari
Pastga boqmaganmi kibr-u havo-la?
Ishqilib, quyida sarg'aygan yaproq
Qilmaganmi o'ksib taqdirga nola?

Mana, bugun endi azim daraxtning
Barglari yer uzra yoyilib yotar.
Tuproq aro mangu singib keturlar,
Xazonrez barglar-chun so'nggi tong otar.

Shularni o'ylarkan etim junjikib,
Borliqni kuzatdim – ajib bir oyat¹
Qiyomat degani asli shundaydir,
Bu holning hikmati, balkim, hidoyat?!

Ajab, tabiatning bizlarga qilgan
Mangu bir mo'jiza-ishorasimi?
Va yo takabbur-u riyo ahliga
Tangrining ko'rsatgan nishonasimi?!

Xazonrez bog'lardan o'tganda yolg'iz
Dunyoning qismatin uqqanday bo'ldim.
Ming turli za'faron yaproqlar ichra
Yagona bir buyuk tenglikni ko'rdim.

¹ Oyat – mo'jiza.

SO'ZIM

So'zim, jonbaxsh so'zim yordin
Menga shirin hikoyat qil...
A'zam O'ktam

So'zim, tavba ayladingmu,
Pok o'ldimi sening jisming.
Xiyonatmas, jinoyatmas,
Ki bir masnad sening isming.

Agar ushshoq bo'lay desang,
Haqiqat ayla hamrozing.
Ibodot ayla, dil-mehrob,
Shu pok avroq- joynamozing.

Faqat so'yla Haq yo'liga
Boshing quygach g'uboringni.
Sarob bilma, xarob bilma
Umidi Haq diyoringni.

Majruh ko'ngil, mazlum ko'ngil,
Marg'ub debon suymish seni.
Ziyo ko'ngil, zebo ko'ngil
Senga bog'lab qo'ymish meni.

So'zim, tavba ayladingmi...

BOQIY SHE'RIYAT

Davr-u davronlar ham o'tguvsi bir kun,
Shodmon davradan fayz ketguvsi bir kun,
Daftar adog'iga yetguvsi bir kun,
Shoir yuragiga zamon soqiydir,
She'riyat boqiydir!

Ey shoir, yoniq qalb muborak senga,
Haq vasfi – surai taborak senga,
Bu dunyo shunchaki ziyorat senga,
Shoir yuragiga zamon soqiydir,
She'riyat boqiydir!

Shoirlar ko'nglini yoqqan hur – nazm.
So'zdan kimyo yanglig' paydo dur – nazm
Asli Qur'on, Haqdan tomgan nur – nazm,
Shoir yuragiga bir Haq soqiydur,
She'riyat boqiydir!

CHAVANDOZ

Ot yigitning ori deydilar,
Qanoti der chin o'ktam zotni.
Ham do'st-u, ham yori deydilar,
Shunday ulug' atarlar otni.

Yov lashkarin ko'ksi-la yorib
Goh shamolday, quyunday uchgan.
Chavandozin asrab, qutqarib,
O'zi g'anim o'qiga uchgan.

Daryolardan suzib o'tolgan
G'arq qilmasdan asrab egasin.
Ag'yorlardan ogoh etolgan
Ko'z yummasdan sergak xo'jasin.

Do'stdan ziyod, yordek vafodor,
Unday yana kim bor, ayt, do'stim.
Har gal otga ko'zim tushgan chog'
Hayratlanib, zavqlanib o'sdim.

Ayamading sen nechun bu kun,
Arg'umog'ing qoldimi yoqmay.
Sag'riniga qamchi tushirding,
Ko'zing bilan ko'ziga boqmay.

Ko'rinmaydi ko'zingga oting,
U tikkan-ku senga jonini.
Voh, hisobga olmading o'g'lon
Vafodoring bor imkonini.

Usma-ust oh qamchi tushirding,
Otga emas, uning origa.
Inson o'zi shundaykan, asli-
Vafo qilmas ekan yoriga.

Senga nima bo'ldi, yuragim,
Nechun buncha bezovtasan, ayt.
Ko'kragimni teshguday urding
U zot otga qamchi solgan payt?

Ma'yus qaytdi ot u uloqdan,
Yoshlanganday ko'rindi ko'zi.
Tuni bilan ag'anab chiqdim
Kuragimda qamchining izi...

Yaxshi otga bir qamchi derlar..
Lek undan-da bordir sarasi.
Har chavandoz uchun do'st-oti
Ham qanoti ko'zin qorasi.

Bir imodan ko'kka uchadi
Oshib o'tar jarlar ustidan.
Toshqinlarda qalqib oqsa-da
Ajralmaydi bir zum do'stidan.

Gar yiqilsang yolin to'shagan,
Na-da yoli, jonin to'shagan
Jon do'stingga qamchi solding-ga,
Kim bor axir unga o'xshagan.

Ey chavandoz, yodda tut mudom,
Bog'lashgamas faqat arg'amchi.
Yaxshi otga ko'z qiring yetar,
Uraverma sen unga qamchi.

Bilsang, ishonch, vafo bor joyda
Ko'rsatmaslar alplar kuchini.
Mardlar uchun oltin qoida-
O'ylab urar otga qamchini...

QUYOSH

Osmon qizi kulib tashladi k-o'kdan-
Oltin zanjirli ul ko'priklarini.
Shuncha yaqin keldi, taftini sezdim
Yuzimga urilgan kipriklarini.

**“KO’NGIL MUSAVVIRIN
YERDAN IZLAMA...”**

Inson eng buyuk oshiq ekan! Uning hayot yo’li ishq olami ichra o’tarkan. Vatanga, kindik qoning to’kilgan muqaddas zaminga oshiqlik, ota-onaga muhabbat, yor ishqida jununlik, do’st-u birodarlarga sadoqat, farzandlarga bo’lgan mehr va sevgi! Bu yorug’ dunyoga, hayotga, Haqqa muhabbat! Ularning bari ko’ngil chorrahalarida tutasharkan.

Inson ulg’ayish pillapoyalarini bosib o’tgan sayin uning oshiqlik, dunyoni idrok etish borasidagi o’y-fikrlari, qarashlari ham o’zgarib, dardlari yangilanib, kattarib borarkan. Lekin o’zga oshiqlar qalbidan ko’ra o’z beorom qalbingni anglash qiyinroq, mushkulroq kecharkan. Goho o’zgalarga so’zing, taskining o’tarkan-u, o’z qalbing itoatingga yurmas, yupanchga ko’nmas ekan. Anglaganim, ming iztirobga solmasin, Haq ziyosi tushgan qalb adamas, nafsga basma-bas kelishga qodir ekan.

Bu to’rtliklar nafaqat o’zga qalblarni, balki o’z qalbmni anglash yo’lidagi urinishlarimdir. Yillar davomida turli yondaftarlarim varaqlarida, kitoblar hoshiyalariga bitilgan umrim parchalari.. Ular atayin yozilmagan, balki

hayotimning turli lahzalarida yuragimni kuydirib o’tgan, anglab-anglalmaganim, tuyg’ular, armonlar, hijronlar, sog’inch va iztiroblar, hayratlar gulxanidan sachragan iltijo uchqunlaridir.

* * *

Bulbullik da’vosin qilmasman men, yo’q,
Ey ko’ngil, sen Hudhud yo’lini poyla.
Gar qushlar murodin anglamoq bo’lsang,
“Lisonut-tayr”ni joningga joyla.

* * *

Tashna dilga yo’q hayot lablaring zilolisiz,
Ko’z uyi ham Ka’basiz ko’zlaring xayolisiz,
Jonsiz dilim bu oqshom aslo qayta tirilmas,
Tunni muattar qilgan sochlaring shamolisiz.

* * *

Oshiq dil bunchalar obod go’shadir,
Kim bundog’ ko’ngilga nur shod qo’shadir,
Ko’ngil musavvirin yerdan izlama,
Asli falakdagi Behzod O’shadir!

* * *

Adashgan dil uchun so’zing nur – oyatdur,
hidoyatdur,
Arzi dilim shikoyatmas, oshiqlig’din
hikoyatdur,

Bu kun mushtoq ko'ngil uyin eshiklarin senga
ochdim,
Sendin kelgan ishq kalomi rivoyatmas,
rioyatdur.

* * *

Bu elda shoirga zabon Mashrabdan,
Yurakni o'rtagan fig'on Mashrabdan,
Anglamassan oshiq dilin, ey g'ofil,
Merosdir ne bo'lsa nihon, Mashrabdan.

* * *

Ko'nglimni ol, bir ko'za u – iymon suvin
to'ldirgil,
Jismim ichra nafs ajdarin jilovlagil, o'ldirgil,
Muhabbatim chechaklarin mehring bilan
sug'or-u
Qalbidagi riyo gulin sehring bilan so'ldirgil.

* * *

Ishq mening davlat-u xayolim, dedim,
Oshiqqa hijron ne, savolim dedim,
Gar sendan yo'q karam, neni istaram?!
Savolim javobi –zavolim dedim.

* * *

Dema, ishq ravzasi bu bir rivoyat,
Ishqki, bu nazari Haqdin inoyat,

“Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” –
Avval hikoyat-u, oxir hidoyat.

* * *

Majnunning ishqini demangiz azob,
Intihosin demang bu dilni sarob,
Bu shunday yo'ldirki, anglolmas g'ofil,
Dardsizlik – gunoh-u dardmandlik – savob.

* * *

Bu yolg'on dunyodan rostni axtarib
Xayyomdek mast bo'lib icholsak edi.
U falak arshidan soqiy may quysa,
Ko'ngilni qadahdek tutolsak edi...

* * *

Yo Rab, o'zing bu dilim ishq ichra samandar
qil,
Hijron gulin iforin o'zing mushk-u anbar qil,
Vasling so'rdim, hayotim subhini qaro qilding,
Bemurod ketmay, umrim shomini munavvar
qil...

* * *

G'amdin yomg'irlarga to'ldi dil – abrim,
Chaqmoqlar – so'nayotgan eng so'nggi sabrim.
Seni izlab bo'lindim ming bir bo'lakka,
Har tomchi tushgan yer – u mening qabrim.

* * *

Qalbimni tinglamoq bo'ldi odatim,
Seni har dam yod etmoqchi toatim.
Subhdin shomgacha, shomdan tonggacha,
Sog'inch bo'ldi har daqiqam, soatim.

* * *

Majnun dilga oshiqlik maqomin bergil,
Tilimga Xalloyning kalomin bergil,
Ishq qissam bu olam ichra so'nsa-da,
U olam ichra chin davomin bergil.

BU DIL BIRLA...

Bu dil birla ishq eliga
Bororing'a ishonchim bor,
Ey yor, ishqdin ko'ngil so'zon,
Sharoring'a ishonchim bor.

Vasl yo'lin dema azob,
Bu yo'ldin qaytarim yo'qdir,
Seni deyman qiyomat to,
Qaroring'a ishonchim bor.

Sen ey, nargiz, diling nurin
Dilimg'a bog'lading, ketding,
Kezib dunyo, seni izlab,
So'roring'a ishonchim bor.

Desang yulduz sochib ko'kka,
Manga munchoq etib ber, deb,
Abrlar arg'umoq bo'lg'ay,
Teroring'a ishonchim bor.

Yuzing ko'rsat, kuyib o'lmam,
Manga aslo zavol yo'qdir,
U kul ichra ki Qaqnusday
Turoring'a ishonchim bor.

Dema Mashrab, dema Xalloy,
Nasimiy sabri yo'q senda
Ki dor tiklab azob berg'il,
Yaroring'a ishonchim bor.

Bu qat-qat pardalar garchi,
Ey yor, chehrang yashirgaydir,
Dilim ko'zgu bo'lib, bir kun,
Ko'roring'a ishonchim bor.

* * *

... Andijonda tug'ilgan joyim,
Chorlasa-da borolmadim hech.
Yodin solmish dilga Xudoyim,
Tildan qo'ymam uni erta-kech.

Umr yo'li meni shu tomon
Olib kelgan bo'lsa, netayin.
Asli, shunday yaralgan zamon,
Hukmin buzib qayga ketayin?

Qismat degan tog'li dovon bor,
O'tmoq mushkul posbonlaridan.
Qancha sirdosh yulduzlar topdim
Ko'hna Shoshning osmonlaridan.

Goho yurak topganda ozor,
Goh kimdandir yetganda alam.
Ko'nglimga nur soladi takror,
Sirdosh do'stga o'xshaydi qalam.

Taqdir yo'li xaritada yo'q,
Sog'inchlarni bilmas posboni.
Inson qayga borsa tutashgan
O'z yurtiga ming bitta joni.

Qizg'aldoqlar nigohi tushgan
Yerlarimni o'pgim keladi.
Bobur Mirzo yeta olmagan
Andijonga ketgim keladi.

Ketolmayman senga, Andijon,
Yetolmayman senga, Andijon.

ANDIJON BU – SIZSIZ, ONAJON

Daraxt to'kar yaproqlarini
Yo'q, to'kmaydi, shamol tortqilar.
Bilmam, shu kez ma'yus daraxtning
Tanasida nedir zirqirar?!
G'arib misol yalang'och shoxlar
Eslab har tong yaproqlarini.
Shamollarga insof tilaydi,
Yashirolmay titroqlarini.
Hasrat bilan ko'kka ko'z tikar,
"Alvido" der xazon barglari.
Har kuzakda qayta boshlanar,
Unutilgan uning dardlari.
Shamol esar, to'zg'ir xazonlar,
Taqdir – quyun, qilar chirpirak.
Shu o'ylarni bitarkan nogoh,
Sanchib-sanchib og'ridi yurak.
Azim daraxt yaprog'i harchand
Intilsa-da, qaytolmas unga.
Onam – daraxt, men-chi bargmasman,
Nima bo'ldi, do'stlarim, menga?!
Tugamas-ku axir yumushlar,
Do'st bo'ldimi menga bahona?!
Axir, imkon har vaqt topilar,
Farzandman, deb yuribman yana...
Garchi quyun, tursa-da dovul,
Garchi yo'lim to'ssa bo'ronlar.

Agar yo'lga otlar bo'lsam
Hatto tinar yomg'irlar, qorlar.
Siz har tongda kutasiz meni,
Har subhidam kutar Andijon.
Sog'inmasdan qanday yashadim,
Andijon bu – sizsiz, Onajon?!
Sog'inch bilan dovon ortida
Eslab mendek “yaproq”larini,
“Bolajonim sog'mikin?” deya,
Sezdirmaydi titroqlarini.
Otlanaman, ko'zda yosh bilan,
Keldim... keldim, yo'q endi firoq.
Onam sochim silab erkalar,
Tizzasida yam-yashil yaproq...

YULDUZIM

Eslashar shunday deb bolalik chog'im:
“Yulduzim” deb meni erkalab doim.
Bir ajib allalar aytar ekanlar
Beshigim tebratib o'tirib oyim.

O'ylamang, bir murg'ak chaqaloq uchun
“Yulduz” deb hech bino qo'ymagan ekan.
Saida opaning allasin kuchin –
Anglagach, hech aytib to'ymagan ekan.

Yil o'tib, ilk qadam qo'ygan onimda
Tilimda uyg'ongach qaldirgoch so'zim.
Bir rohat hissini qo'msab jismimda
Onamni chorlarkan umidvor ko'zim...

Yiqilsam yo'llarda qaddim tutolmay,
Chaqirar ekanman:
– Onajon, keling!
Yo o'zim borgach goh tizzalariga
Bosh qo'yib derkanman:
– “Yulduzim” qiling!

Ko'zimga kelmaskan allasiz uyqu...
Bir kun o't ichida qoldi yurak, tan.
Onamdan ayrildim, u tun ko'z yummay,
Tilimga shu alla keldi daf'atan.

Men asta xirgoyi qildim, to'ymadim,
Dil to'la nola-yu, dil to'la kadar.
Endi men ne qilay osmon axtarib,
Qaylarga borayin, ma'yus darbadar?

Goh hayot ko'zimga ko'rinsa yomon,
Goh do'stlar "marhamat" qilsa beshafqat.
"Yulduzim qiling", deb so'rayman omon,
Onajon, o'zingiz aylangiz shafqat!

Senga ham, diyorim, bitta arzim bor,
Onamsan, ko'rsatay senga sadoqat.
Onamdek osmonim –eldan qarzim bor,
Yulduzim yorug' qil, yulduzim, har vaqt!

Ustozlar mehriга to'ymayin kezdim,
Eng buyuk ustozim o'zingsan, bilgil.
Osmon bo'l sen har vaqt, osmon bo'l kabir,
Tizzangga bosh qo'ysam, "Yulduzim" qilgil!

2002

ONAM EKKAN RAYHONLAR

Onam Ergashxon Yo'ldoshboy qizi xotirasiga

Hovlimizga jannat bo'yin taratgan,
Sabolarga ifor tutgan, yayratgan,
Ko'kdan oy-u oftobni ham qaratgan,
Borlig'ida malaklarmi, nihonlar,
Rizvon ekan onam ekkан rayhonlar.

Kapalaklar arimasdi qoshidan,
Bolarilar ketolmasdi boshidan,
Unganmidi onamning bardoshidan,
Oh, kaftdagi jannat derdi giryonlar,
Ehson ekan onam ekkан rayhonlar.

Garchi gul ko'p bu olamda iforli,
Qo'l cho'zsang gar ozorlig-u tikonli,
Tarovatli, muslim kabi iymonli,
Uni arshdan tushirmishmi posbonlar,
Jahon ekan onam ekkан rayhonlar.

Har tong turib siypardi gul yuzlarin,
Erkalagan kabi ona qizlarin,
Sirdosh bilib aytganmi dard, so'zlarin,
O'sha chog'lar neni qilmish bayonlar,
Doston ekan onam ekkан rayhonlar.

Boshim qo'ysam men ko'ksiga onamning,
Rayhon isi chulg'ar edi tanamni,
Oh, u jannat tark etdimi olamni,
Yaprog'iga yig'lab taqdim marjonlar,
Fig'on ekan onam ekan rayhonlar.

Ona desam zor titraydi bu jonim,
Ketdimi-ya bor davlatim, jahonim,
Mehribon yo'q, qayda u mehribonim,
Dardim endi qanday tutay pinhonlar
Darmon ekan onam ekan rayhonlar.

Sog'inchimga bu dunyoda yo'q chora,
Fapib bog'man, bog'bonsiz qalb ming pora,
Onamsiz men kim bo'ldim, bir bechora...
Tatirmidi menga bu shirin onlar,
Davron ekan onam ekan rayhonlar.

Bir kun men ham bu dunyodan o'tarman,
Balkim qo'lda rayhon bilan ketarman,
Shunday onam diydoriga yetarman,
Darkor emas bundan o'zga unvonlar,
Imkon ekan onam ekan rayhonlar...

2002

ILTIJO

Hayot bu ne'mat-u nodir,
So'zing haq, o'zingsan qodir,
Yo Rab, ne desang men hozir,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Ishonchim gar sarob bo'lsa,
G'amim o't, iztirob bo'lsa,
Ki bir malham sharob bo'lsa,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Vujud ichra diyorim shul,
Qanoat ham qarorim shul,
Sharorim ham shiorim shul:
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Olgin, ey fitnasoz mohir,
Kemang mendan, yiroq sohil,
Bo'lay men O'ziga doxil,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Dema do'st yo'q, alam bordir,
Ki she'r, daftar-qalam bordir,
Manga darddosh qalam bordir,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Dilimga nur to'shar iymon,
Yiqilma, der menga vijdon,
Ki sensan hazrati inson,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Magar ag'yorki, zog' bo'lgay,
Umid bahor-u bog' bo'lgay,
Duolar dilga tog' bo'lgay,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Ilinjsiz dilda nur bo'lmas,
Umidvor g'amga qul bo'lmas,
Ochilmay g'uncha gul bo'lmas,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Kuzak o'tgay, kelur ko'klam,
Sabolar-la yelur ko'klam,
Hayot-u shaxt berur ko'klam,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

Har sozga bir bayot kelgay,
Nahr bor, suv -hayot kelgay,
Kut-ey, Haqdin najot kelgay,
Ko'ngil sobir, ko'ngil sobir!

BEOROM TUN

...Yo'l boshladi Doroga Shiroq,
Yuzlarini kuydirar samum.
Kula boshlar telbaday biroq:
"To'rt taraf ham yetti kun yo'l. Qum..."

...Qonga to'la meshga To'maris
Tiqdi pahmoq Kirning boshini.
So'ng Jayxunga otib yubordi:
"Ichgil, ana, elning yoshini..."

Ming yillarki, evrilar zamon,
Tinmas bir zum yuraklar zarbi.
Uyg'onar Tong - ko'ksida armon,
Yal-yal quyosh - ajdodlar qalbi...

Tunlar bir ruh shivirlar betin:
"Qayda qoldi bu turkiy tug'lar,
Qilichimni o'g'irlagan kim?"
Ko'zlarimda To'maris yig'lar...

KET..

Afsunlaring endi o'tmas yurakka,
Ko'zimdagi mung pardasi surildi.
Qalbim yonib shu'la sochar falakka,
Ko'ngrim ichra o'lgan umid tirildi.
"Ket, ko'zimni aldaguvchi xoki nur,¹
Ket, olovli chizig'imdan nari yur!"

Shol minorlar tanasiga ruh qaytdi,
Tomirlarda oqdi iymon gullari.
Tongda yurak mehrobiga nur qaytdi,
Lablarimga gulob tutdi hurlari.
"Ket, ilohiy vujudimni bulg'ama,
Butlar bilan tegramni chulg'ama!"

Qo'ygil, ag'yor, endi makr-u domingni,
Aldovlaring yo'qotdilar sehrini.
Yuraklardan o'chirdi el nomingni,
Ozod ruhga baxsh etib bor mehrini.
"Ket, malaklar dostonini o'qima,
Ket, aslsiz ertaklarni to'qima!"

Ko'ch-ko'roning ol-da, yo'qol dillardan,
Yuraklardan Sohibqiron chiqmasdan.

¹ Чўлпон мисралари.

Qamashdimi, ko'zing ham u nurlardan,
Endi qo'ymas, bu el taxting yiqmasdan.
"Ket, jonimni qiynaguvchi jodu – hur,
Ket, ko'ngrimni aldaguvchi yolg'on nur!"
Ket!..

1988

KUZ

1937

Daraxtlarga osilgan murda –
Chayqaladi za'faron barglar.
Ichiqora bir to'p qarg'alar
Erta-yu kech qishni daraklar.

To'lib ketar zamin murdaga,
Yurolmaydi odamlar hayqib.
Toqat qila olmay azaga,
Keta boshlar turnalar qaytib.

1988

UYG'ONISH IZTIROBI

...Alamlar chodراسi ichra u sassiz,
Qo'lida ko'zamas, zanglagan o'roq.
G'animlar talardi yurtini yuzsiz,
Uyida yig'laydi yetim chaqaloq.

Otlarning dupuri kelar qaydandir,
Ajnabiy zotlarning oshig'i olchi.
O'rog'in ko'tarar u dil toymasdan,
– Ey jallod, ket, menga gar tegib ko'r-chi...

Xoxolab kuladi otidan tushmay,
Tilmochning so'zlarin eshitib g'anim:
– Eringni o'ldirdik, kel, sen tul qolma,
Turkiydan orttirgan cho'rim bo'l manim...

O'rog'in ko'tarar, hayqirib u dil,
Tomrida oqdimi To'maris qoni.
Atrofga sachradi alvon-alvon gul...
Tuproqqa qorildi Turkiston shoni...

Kim edi u ayol, kim edi, bilmam,
Buvimdan eshitdim bu hikoyani.
G'animlar ne qilgan, deya so'rayman
Kulbada chinqirib qolgan bolani?

...Qayg'udan sochlari qorday oqargan,
Shu kecha tushimda surgancha xayol:
– Onasin kutgancha, big'illab yotgan
Sen o'sha o'g'limsan, – deydi bir ayol...

1987

HAYOLI SOG'INCHLAR

Shoira Zulfiyaga

Dardli dunyo ekan bu dunyo,
Bedard emas shundan odamzot.
She'r olami – ko'rdim bir ziyo,
G'amlar uni qilmadi ozod.

Baxtim qaro demadi u hech,
Sabr bo'ldi unga dugona.
Iztirobning yashil taxtida
Bir ayol bor mangu yagona.

Bahor ilk bor qayga keladi,
Kulib boqar g'unchalar kimga?
Bahor ilk bor unga keladi,
Sog'inchini bermas hech kimga.

Gullar duo qilar har sahar
Sadoqatning farishtasiga.
Muhabbat ham asta bosh egar
Qulluq deya bu bekasiga.

Sadoqat bor qadrim ulug' der,
Sadoqat bor, mehr menga yor.

Shu ayolga bardosh qulluq der,
Muhabbati cheksiz ulug'vor.

Shular asrar uni dunyoda,
Mangu mahzun suradi xayol.
Sog'inchlari hanuz hayoda,
Bardosh ma'budasi bu ayol...

1990

SEHRLI KECHA

Oy to'lib boqardi ko'kdan dunyoga,
Yulduzlar o'ynardi giryona bo'lib.
Tushdi u cho'milmoq bo'lib daryoga,
To'lqinlar o'ynadi quchog'i to'lib.

Qamishlar titradi asta shitirlab,
Sohilda ko'rindi yigit, munis qiz.
Yulduzlar entikdi ko'kda miltirab,
Oy nari ketmoqchi bo'ldi-yu sassiz...

Ertaklar chin bo'ldi, shirin, sirli tun,
Pok edi beg'ubor ikki yosh o'yi.
Ularni cho'chitib yubormaslik-chun,
Oy qaytib chiqmadi suvdan tun bo'yi...

EY GUL

Dunyoga boqdim-u, ishondim endi,
Armonsiz yashamas unda odamzot.
Sevgisiz hayotdan men tondim endi,
Tushimga kiradi sevgilim bot-bot.

Meni zor yig'latib, yig'lar o'zi ham,
Ko'z ochib ko'rganim u ko'zlarda nam.
Gullarga boqdim-u dard ichra qoldim,
Yaproqlar yuzida munchoqdek shabnam.

Sen nechun yig'laysan, sen nechun, ey gul,
Nechun ko'z yosh senday gulgun ziyoda.
Bir dilni axtarib o'tmoqda umrim,
Manim yig'laganim kammi dunyoda?!

MENMI...

Menmi ishq yo'lida adashgan orzu,
Menmi dil rishtasin dilingdan yechgan?!
Menmi o'z ko'ngliga tutqazgan og'u,
Menmi sevgisidan o'zi voz kechgan?!

Menmi bu dunyoda yig'lagan ko'ngil,
Nechun meni sevdin, arzirmi jonim?!
Endi qayerlardan izlarman, bilmam,
Sevgim – xayrlashmay ketgan mehmonim?

Menmi bedardlarga dardini aytmay,
Ko'z yoshing sezdirmay ketgan bir sabo?!
Menmi o'z sevgisin qadriga yetmay,
Muhabbat bog'ida yurgan bir gado?!

Menmi muhabbatning qo'lidagi ul –
Gulday yuragini hijronga otgan.
Menmi gulzor izlab adashgan bulbul,
Ishqidan chekinib gunohga botgan?!

Menmi, ko'zlaringda ko'rmay dunyoni,
O'zga bir dunyoning ichidan o'tgan?!
Menmi, o'z ishqini toptagan gumroh,
Do'stlar Majnun desa, o'zidan ketgan?!
Menmi...

KEL, GULYUZ...

Bu hayot tutqazdi menga ham boda,
Piyolam ichida kular bir chehra.
Oromim tarqatma, ketgil, shabboda,
Kel, gulyuz, ey sharob, meni sehrla.

Raqs tushgin qonimda, nur ber ko'zimga,
Muhabbat sehrini jonimga joyla.
Kuylasam, soz chalib mening so'zimga,
Adashgan chog'larim yo'limni poyla.

**GULLASH PAYTI KELDI,
BOG'LARIM!**

Yurt yo'llari, muqaddas yo'llar,
Do'st ham undan kelgan, g'anim ham.
Madad so'rab cho'zilgan qo'llar—
Erib oqqan bamisoli sham.

Bu yo'llarda g'anim qahridan
Giyohlar ham sarg'ayib so'lgan.
Bu yo'llarda qancha pok dillar
Orzularin tuproqqa ko'mgan.

Bu yo'llarni supurmagan yel,
O'ksib o'tgan bu yo'ldan bahor.
G'animga suv tutgani uchun
Ich-etin yeb ingragan anhor.

Bu yo'llarga bobom to'kkan yosh,
Mardlar qonga belanib o'tgan.
Bu yo'llarga sig'magan quyosh,
Baxtlar g'amga ulanib ketgan.

Shukr deyman, endi bu yo'llar—
Yuragimga tutashib ketmish.
Quldan bekka aylanmoq ne baxt,
Zanjirlarning ovozi – o'tmish!

Sano aytib kelgan giyohlar,
Ey, toptalib cho'kkan tog'larim,
Endi qadni tiklangiz, deyman,
Gullash payti keldi, bog'larim!

Endi mening qalbimda ham oy,
Hislarimga tutadi gullar.
Endi siz ham ozodsiz, uching,
Yuraklarga qamalgan nurlar...

1991

“XAYR” DEMA

Xayrlashgim kelmayapti, yo‘q,
Ketsang zulmat qoplaydi dilim.
Ayrilmasdan turib, sog‘insam
Nima qilay, o‘zing ayt, gulim!
Yurak ko‘nmay aslo hijronga,
Ko‘ksim ichra chala boshlar bong.
Bil, qalbingda oftob jilmaysa,
Yuragimda ota boshlar Tong...

BAHOR BO‘LIB KEL...

Sabzalarga burkab ko‘nglim diyorini,
Umidim g‘unchasi kulsa, so‘lmasmidi?
Kim kutibdi axir mendek o‘z yorini,
Majnun bo‘lsam, Laylo holim bilmasmidi?
Bahor kelgan yo‘l senga ham yo‘lmasmidi,
Bahor bilan kelaversang bo‘lmasmidi?

Ko‘zlarimda kularmida qizg‘aldoqlar,
Tuyarmidim turfa gullarning totini.
Sen bilmading muhabbatim o‘sha chog‘lar,
Bog‘lab ketding yuragimning qanotini.
Balki, ko‘nglim buncha g‘amga to‘lmasmidi,
Bahor bilan kelaversang bo‘lmasmidi?

Bilarding-ku, men umrimni senga berib,
Bir qizg‘aldoq umrin sendan tilaganim.
Nima ko‘rdim bu dunyoga shoshib kelib,
Shu bo‘ldimi axir sendan so‘raganim?!
Oy bo‘lmasang, ko‘zim ko‘kka tushmasmidi,
Bahor bilan kelaversang bo‘lmasmidi?

Bu devona kim bo‘ldi deb o‘tar sabo,
Buncha zabun, buncha g‘amli kuying deydi.
Ko‘p g‘am chekma, umring o‘zing qilgung ado,
Xazon qilar seni tushkun o‘ying deydi.
Xazon nima – balkim, umrim bilmasmidi,
Bahor bilan kelaversang bo‘lmasmidi?

Menman o'sha – bir bulbulday bahor chorlab,
Har soniya yo'llaringda kutayotgan.
Menman o'sha – o'sha osmon bag'rin dog'lab
Seni deya bir yulduzsiz o'tayotgan.
Zulmat quchgan osmon nurga to'lmasmidi,
Bahor bilan kelaversang bo'lmasmidi?

Qaytmasingga ishonsam ham kutavergum,
Netay, o'zni hech bu qo'lga ololmayman.
Bilganim dard, hayot g'amin yutavergum,
Xazon bosgan bu yo'llarda qololmayman.
Men intizor kutgan onlar shulmasmidi,
Bahor bilan kelaversang bo'lmasmidi?

Bahor bo'lib kelaversang bo'lmasmidi...

QAYGA SHOSHILASAN

Qayga shoshilasan, telbavor ruhim,
Senga tor keldimu vujud qafasi?
Ortingga qaramay ketyapsan nechun,
Seni mast qildimu bulbullar sasi?

Qayga shoshilasan, telbavor ruhim,
Nahot intilganga beayov jabr.
Oldinda bemajol oylar, yillar bor,
Oldinda sabrdan yaralgan qabr!

Qayga shoshilasan, telbavor ruhim,
Qayda u sen borar makon-u manzil?
Oldda yulduz bo'lsa, izingda oy bor,
Sevgi bor ortingda, qayrilsang arzir,
Qayga shoshilasan, telbavor ruhim?..

YOMG'IR YOG'AR

Yomgir yog'ar g'unchalarga tomchilab,
Shamol esar yuragimni qamchilab,
Hech kim kelmas menga saodat tilab,
Seni kutdim men intizor nechalar,
Hazin bo'ldi yomg'irli bu kechalar.

Tashqarida qaltiragan yaproqlar,
Yuragimga solib ketar titroqlar,
Yoritolmas ko'nglim yongan chaqmoqlar,
Seni kutdim men intizor nechalar,
Hazin bo'ldi yomg'irli bu kechalar.

Derazadan ko'z tashladim jon Halak,
Ucholmasdi qanoti ho'l kapalak,
Uni ko'rib baddar ezildi yurak,
Seni kutdim men intizor nechalar,
Hazin bo'ldi yomg'irli bu kechalar.

Mendan nechun olislading, bilmadim,
Sevgim bilan yuragingga sig'madim,
Osmon bilan birga unsiz yig'ladim,
Seni kutdim men intizor nechalar,
Hazin bo'ldi yomg'irli bu kechalar,
Uzun bo'ldi yomg'irli bu kechalar..

TASODIF

Qancha kutgan edim bu uchrashuvni,
Qancha iltijolar qilib tunlari.
Sabrim niholining gullashin kutib,
O'tdi yoshligimning aziz kunlari.

O'ychan ko'zlarimga tikilasan jim,
Ma'yus qorachig'da g'amni ko'rasan.
Bu bizga taqdirning ehsoni balkim,
Ko'zlaring aytmoqda... demak... sevasan...

Shu baxtning o'zi ham menga kifoya,
Shu lahza quvonchi ming yilga yetar.
Ey hayot, bas endi, olgil hijroning,
Iztirob, yuzimdan pardangni ko'tar...

Oh, fursat, qanchalar tez o'tasan sen,
Nahotki ketar u yana ming yillar.
Ortidan boqaman bir so'z deyolmay,
Men bilan qo'shilib yoshligim yig'lar...

KIPRIKDAGI KURTAQLAR

Totli edi bir vaqtlar dunyo,
Tashvishlar ham bu dildan yiroq.
Chorlar edi meni bir ziyo,
Yetolmadim nuriga biroq.

Ko'nglim kezgan bahoriy yo'llar
Chechaklari meni bilardi.
Subhidamda u mayin qo'llar –
Shabbodalar sochim silardi.

Inson umri goh hud, goh behud,
Yorug'lig-u tun-la o'tarkan.
Muhabbat ham bahoriy turna,
Xazonrezni sezsa ketarkan.

Umrin bahorlarin qo'msab goh,
Yurak "ol" deb qizg'aldoq tutar.
Sog'inchidan etgali ogoh,
Kipriklarda kurtaklar bitar...

HAYOT SABOG'I

Umr o'tar, kunlar oralab
Ortda qolar ma'yus orzular.
Hayotimning chorsularida
G'amlar mening baxtim yashirar.

O, bu dil ham ajib saltanat,
Bilib, jismim o'tga otadi.
Iztirobning g'olib lashkari
Ko'zlarimga kelib yotadi.

Xayolmi u meni chorlagan,
Yetolmayman, charchaydi jismim.
Tunlar yulduz saltanatidan
Kimdir tilga oladi ismim.

Goho mag'lub, goh mag'rur umr,
Yana ildam boshlar bu hayot.
Goho shirin xayollar berib
Yuragimga qilur iltifot.

Subhidamning mayin yellari
Sochlarimni siypab ketarkan.
Bir mantiqni tushunaman men,
Umr–azob ichra o'tarkan.

Ko'tarilar tunning pardasi,
Umidimga izlab nihoya.
Ilg'ab qolgum yorug' dunyoda,
Baxt ham o'tgan kundan bir soya.

Ko'kdan shu'la soch, baxt yulduzim,
Guldek yashnab qarshilar jonim.
Ko'zlarimga nur bergil o'zing,
Ey toleim, nurli mehmonim...

SADOQAT

Nurli manzillarga ko'zlarin tikib,
Ketib borar edi bir to'p oqqushlar.
Sadaf tizimiday ma'voda uchib –
Ko'chib borar edi bir to'p oqqushlar.

Har biri ko'nglida yorug' orzular,
Yellar to'lqiniga urar tushini.
Xayolda tiklanar munavvar kunlar,
Ko'zlarim kuzatar sevgan qushini.

Bilmadim, horibmi yiqildi bir qush,
Tasbeh shodasidan uzildi nogoh.
Zaminga quladi oppoq qush behush,
Barchasi qayrilib bo'ldilar ogoh.

Oqqushlar karvoni qaytmadi biroq,
Chalajon do'stini olib ketmadi.
Nahotki, dillari vafodan yiroq,
Hech bo'lmasa, jufti qolib ketmadi.

Ey dunyo, hadikka to'ldi bu ko'ngil,
Bir do'st-u mahramga dillar zor ekan.
O'ksiydi sadoqat otli ma'yus gul,
Toki vafo qilmas do'stlar bor ekan.

Qulagan oqqushday pitirlar jonim,
Garchi eplay olgum kam-uko'stlarim.
Yolg'izlik ezadi sizsiz har onim,
Qayerdasiz, mening sodiq do'stlarim?!

KIBER OSHIQLAR

Yarmi hazil, yarmi chin

Bir zamonlar oshiq yigitlar
Sevgilisin chaqirmoq uchun
Derazaga toshlar otardi
Ko'tarolmay hijronning yukin.

Xat tutqazib yo yosh boladan
Suyganiga yo'llashar edi.
Kunlar, oylar bir oyga boqib
G'oyibona so'zlashar edi.

Zamon zayli ajab, xo'b qiziq,
Eskiribdi oshiqlar ishi:
Endi sevgan yigit-qizning ham
"Iphone" bo'пти, qarang, tashvishi!

Tosh otmoq ham o'tmishda qolmish,
Xat yo'llashga hojat yo'q emish.
"Fecebook" da sirlashsa tunlar,
Kunduzlari SMS kelmish.

"Instagram" ning mujdasin, ajab,
Qancha oshiq-ma'shuq poylaydi.
Tuxumidan chiqqan jo'ja ham
Suratini unga joylaydi.

"Telegram" ham deydimi yana,
Qancha Majnun unda bo'zlaydi.
Bog' ko'chadan, xiyobondanmas,
"Online" da tengin izlaydi.

"Smartphone" in tugmasin bosib,
Qizning "devori" ga "bo'ylaydi".
"WhatsApp" degan chopar dastyordan
"Men keldim!" deb xabar yo'llaydi.

Inglizmi, farangmi, xitoy,
Hind, habashmi, arab yo yapon,
Yigit-qizning qalbin ulaydi,
G'alati bu quticha – "Iphone"!

O'rgimchakning to'riday nozik,
Dunyo bo'ylab taralgan bu "set"
Nimalarni o'ylab topding-a?
Nima qilib qo'yding, Internet?!

Oshiqlarning uchrashuv joyin,
O'qib, boshdan esing ketadi.
Osiyolik yigit izhori
Zumda Amriqoga yetadi.

Biri Mag'rib, Mashriqda turib
Ko'rishsak, der erta saharda.
Men Londondan yetib boraman,
Uchrashamiz "Toj Mahal" da!

Biri deydi: – Meksikadan men
Bo‘ying tuydim gul nafasida.
Sen Dehlidan kel, ko‘rishamiz,
Erta Eyfel minorasida.

Manzillarning aslo cheki yo‘q,
Biri deydi: – Xitoy devori.
Boshqasiga Everest yoqar,
Kumushdanmish u yerning qori!

“Big-Ben” deydi va yo “Kolizey”,
“Burj Dubay”dan yo‘llashar salom.
Dunyo oshiqlarin jam qilar
Internetda yozilgan kalom!

Ko‘payibdi shundanmi ajab,
Elektron dilli “ovchi”lar.
Bu ketishda ishdan ayrilib,
Qolmasaydi yana sovchilar.

Mayli, zamon tahririn qilsin,
Quloq osing lekin ma’niga.
Elektron muhabbatingiz
Gard solmasin qizlar sha’niga.

Sal-pal biz ham bilamiz buni,
Dilingizga tushsa “virus”lar.
Madad uchun doim shay turar
Axloq degan “antiviruslar”!

Unutmang hech ajdodlaringiz
“Aljabr”ning egasi asli.
“Korzinka”ga tashlab yubormang
Bu So‘zim, ey Navoiy nasli!

Bir oz hazil qildim men go‘yo,
Hazilimni chin so‘zga yo‘ying.
Yurakdagi gapimni aytdim,
Yoqqan bo‘lsa, “Like” qo‘yib qo‘ying!

EY DO'ST

Ketgan bahorlarning qaytishi tayin,
Yana boychechaklar urib chiqar nish.
Bahoriy sabzalar entikar mayin,
Ko'rpasin ko'tarib keta boshlar qish.
Kuzgi xazonlarning ostidan yana
Gullar jon kirganday tirilar go'yo.
Ayoqlar ustidan qilib tantana
Ariqlar labida she'r o'qir hulvo.
Beruhday tuyulgan daraxt novdasi
Bodroqday gullarga to'lar begumon.
Najotday taralar bulbullar sasi
Ammo qaytmas ortga, qaytmaydi zamon...
Mangulik qoshida bir zumlik cho'g'miz,
Jon ham muvaqqatdir, umr bir nafas.
Fasllar qaytsa-da, qaytmas lahzalar,
Bir kun bor ochilar ruh tutqun qafas.
Ey ona tabiat,
Ey qodir Xudo!
Asli tuproq erur azal ismimiz.
Bir kuni dunyoga aytganча vido,
Yana tuproq bo'lar shaksiz jismimiz.
Shundaykan, oyog'ing ostiga qara,
Bobolar kaftida turibmiz, ey do'st.
Ko'kraging bunchalar kermagil, asli –
Ularga suyanib yuribmiz, ey do'st!

SUV UZRA OY AKSLANAR

Sokin kecha, oydin tun,
Maysazorlar shitirlar,
Yurak to'rdagi ohu,
O'zin urib pitirlar.

Chigirtkalar jim qolar,
Kelar qadam tovushi...
Farishtaday nozanin
Qo'llarida kovushi...

Sabo yelar ohista –
Shivirlaydi xabarchi,
Qurbaqalar qurillar,
Tundagi beor jarchi.

Suv uzra oy akslanar,
Uxlamaydi baliqlar,
Visol suratin ko'rib,
Qiqirlaydi ariqlar...

SO'Z

Tunning sochlarida yulduzlar porlar,
Nurli shu'lalardan qamashadi ko'z.
Chalina boshlarkan dildagi torlar,
Qalamdan to'kila boshlar sohir so'z.

* * *

Surating, to xayoling
Mehmondir ko'z ichinda,
Mangu ishq Ka'basi ham,
Pinhondir ko'z ichinda.

So'rma kipriklar nechun
Yosh tutarlar billurday,
Har lahzada umidvor,
Hijrondir ko'z ichinda.

Betoqat nechun mardum,
Unga ayondir qalbim,
Ko'ngildan ko'chgan dardim,
Giryondir ko'z ichinda.

Boqsang qancha hasrat bor,
O'qisang qancha dard bor,
Kipriklar bitgan baytmas,
Devondir ko'z ichinda.

* * *

Haq amrini doim et bajo,
Ey do'st, qalbing chin nurga to'lsin.
Dildan, tildan oqsin iltijo,
Iymoning ham chiroyli bo'lsin.

Sahar turib tangriga aytgan,
Vujudingda oftob uyg'otgan,
Savob bo'lib o'zingga qaytgan
Saloming ham chiroyli bo'lsin.

Jannat haqda fikr etsang gohi
"Qanday o'zi Tangri dargohi?"
Iymoningning bo'lib guvohi,
Gumoning ham chiroyli bo'lsin.

Fazilatga kon etgil diling,
Goh yechilsa ozordan tiling,
Johillarday ko'tarma qo'ling,
Yomoning ham chiroyli bo'lsin.

Dunyo ichra sarf aylab boring,
Qadrin bilib har bir imkoning,
Umringni baxsh etib topganing—
A'moling ham chiroyli bo'lsin.

Yolg'iz Haqni naqsh etsin ko'zing,
Doim aytgil sen bug'doy so'zing,
Sarg'aysa gar vasl istab yuzing,
Jamoling ham chiroyli bo'lsin.

G'azal aytsang doim dildan ayt,
Dil aytmagan so'zni qo'ygil, qayt,
Ezgu bo'lsin sen bitgan har bayt,
Kaloming ham chiroyli bo'lsin.

Beldan quvvat, ko'zdan nur ketsa,
Haq qismati baqoni bitsa,
Bir kun umring poyonga yetsa,
Davoming ham chiroyli bo'lsin...

FASOHAT GULSHANI

Faxriya

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Alisher Navoiy istiqomat qilgan uy “Unsiya” deb atalib, o'z davrida chin do'stlar, ijod ahli, ustoz va shogirdlar uchun dilbar suhbatlar oshiyoni, ezgulik, xayr-u ehson hamda ilm-ma'rifat maskani bo'lgan. Ahli toliblar kamoloti uchun u zot bunyod etgan madrasalardan biri “Ixlosiya” deb yuritilgan. Hazrat mangu qo'nim topgan Musallo maydoni esa ezgu niyatlar, xayrli duolar qilinadigan pok ko'ngillar sajdagohi sifatida ma'lum va mashhurdir.

Buyuk bobokalonimiz nomlari bilan atalguvchi Milliy bog'imiz ichra, hazrat siymosi nur taratib turgan muazzam go'shada bunyod etilgan “Adiblar xiyoboni” bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yangi oq va ko'rkam binosiga boqib faxr va shukronalikda ko'ngildan ezgu niyatlar o'tdi.

Bu go'shakim, dil bahr olar, muanbar
ziyaratgoh bo'lgay,
Sohibkim hazrat Navoiy, demakkim,
saodatgoh bo'lgay,
Misli “Musallo”dek ahli ko'ngilga sajdagoh
bo'lgay,

Bunga pok qalb-la kelganlar anga o'zi guvoh
bo'lgay.

Ishq ahli-chun g'am naysonin to'sguvchi bir
shamsiyadek,
Ixtiyor etgan ko'ngilga intizor "Ixlosiya"dek,
Hazrat do'stlarga dasturxon yozgan qutlug'
"Unsiya"dek,
Har niholga soyayi sarv misol oshyon, panoh
bo'lgay.

Falak mehrobida oy ham yulduzlarni
mehmon etur,
Bu ko'shk bog'bonlari har lavh yuzin gul-u
rayhon etur,
Ahli dillar nazm-u nasrin ahli el-chun ehson
etur,
Ko'ngillardan uchgan hislar bir behishtiyo
saboh bo'lgay.

Bul Adiblar xiyoboni, ko'ring, qanday
nurxonadur,
Mudom bahor yashnab turgan "Bog'i eram",
gulxonadur,
Ayvonida Hazrat duo qilib turgan pixonadur,
Pok ko'ngillar nur sochguvchi munavvar
saylgoh bo'lgay.

So'z mulkinging davroni bu, kim kelmish yor
jannat anga,
Bu bog' aro ma'ni guli sochar nuri tal'at anga,
Hazrat o'zi she'r aytmak-chun berguvsidir
navbat anga,
Bunda gahi Farhod, gahi oshiq Majnun
hamroh bo'lgay.

Bu bo'ston bir ulug' qalbdan, mo'tabar bir
ehson bo'lmish,
Aying, bunday inoyatlar ahli dilga qachon
bo'lmish,
Ko'ngil uchun yuksak maqom, darajot-u in'om
bo'lmish,
Haq iltifot etguvchi bir muazzam xayrgoh
bo'lgay.

Keling, kamolot kasb etgan, ma'voyi lutf
zotlar, keling,
Ishq ila qalbi munavvar, komron-u dilshodlar
keling,
Marg'ub ko'ngil g'unchasidek umidi obodlar
keling,
Ochilmoq vaqtin o'tkazmang, gullamaslik
gunoh bo'lgay.

Bundin mujda eltur har yon misli chopar
shabbodalar,

Bunda jam bo'lg'usi har kun sohibi ishq
ozodalar,
Haq vaslini qo'msagan ul ahli qalb
davronzodalar,
Bunda har bir so'zon so'z kim, misli
mehrighiyoh bo'lgay.

Axir Hazrat ul marhamat nigohi-la boqib
turar,
Bir inoyat gulistoni-har bir qalbni yoqib turar,
Botin ichra so'z ummoni misli qondek oqib
turar,
Bunda ash'or aytgan dilga bulbullar xayrixoh
bo'lgay.

Ko'ngil Haqqa eltar yo'lki, ko'nglingizni
poklab keling,
Kibr tuynuk ochgan bo'lsa, o'shal joyin
choklab keling,
Oshiqqlarning mangu so'zin Yusufdek
takrorlab keling,
Ko'nglingizda so'z gullasin, avval so'z
bismilloh bo'lgay.

Oching qalblar derazasin raxin, xushbo'y havo
kirsin,
Dahr bog'i ichra balqqan oftobdin nur, davo
kirsin,

Asli navosoz bu elga hayotbaxsh ul navo
kirsin,
Bir-biri-la yovlashganga misli bir uzrgoh
bo'lgay.

Davr nizomin adl etgan zot azmin Haq ham
qo'llagay,
Davron eli duosiga monandi ijobat yo'llagay,
Ko'ngillarda so'z gullasa, jism-u jon, Vatan
gullagay,
Odamiy orzumand elga bu joy bir sajdagoh
bo'lgay!

NAVOIY XAZINASI

Soʻz mulkida faxri olam, xizri roh,
Ishq darsida murshidi irfon panoh,
Ey koʻngil, kel, taʼb ganjidan boʻl ogoh,
Navoiydan risolatni oʻrganaylik.

Bahr aro topgan xazinam tiynati,
Ulki iymon kishvarining ziynati,
“Qush tili”da jam eʼtimod, niyati,
Navoiydan hidoyatni oʻrganaylik.

Farhod ila Majnun deb ishq shohini,
Laylo ila Shirin demish mohini,
Angladingmi, ey koʻngil, sen ohini,
Navoiydan saodatni oʻrganaylik.

“Saddi Iskandariy” bil, zulmatda jon,
“Sabʼai sayyor” erur bir imtihon,
“Hayratul-abror” ichinda dil nihon,
Navoiydan adolatni oʻrganaylik.

Har baytida aks etur jon surati,
El gʻamidin gʻamgusor inson surati,
Shul emasmi chin musulmon surati,
Navoiydan diyonatni oʻrganaylik.

Hikmati xasta koʻngilga yor, angladim,
Yigʻladim, afgʻonini zor angladim,
Odamiydan bir farishta bor, angladim,
Navoiydan halovatni oʻrganaylik.

Nazmi qalblar taxtida, mushkulkushod,
Haqqiga aylang duo, ruh oʻlur shod,
Ulki biz-la, boʻlmagaymiz nomurod,
“Xazoyinul-maoniy”ni oʻrganaylik,
Navoiydan Navoiyni oʻrganaylik.

SHOIR ABADIYATI

U tog'lar bag'rini makon etgan qush,
Tikanzor, butalar jannatdan afzal.
U millat ko'rayotgan eng chiroyli tush,
Haq o'zi ko'ngliga bergandur sayqal.

U qushning kuylagan qo'shig'i mangu,
Bir kun gar to'xtasa sozi daf'atan.
Dog'iston xalqi, siz chekmangiz qayg'u,
Rasul Hamzat degan qolur bir Vatan!

BOG'-U BAHORIM

Malaklar duosi yog'ilgan chaman,
Haq o'zi rahmatin sochgan diyorim.
Har giyoh, rayhoning suyib quchaman,
Ey, mening jannatim, bog'-u bahorim!

Ming yillik chinorlar Farobiy kabi
G'urur baxsh etadi har murg'ak jonga.
Asriy minorlaring – Buxoriy kabi
Saodat tilaydi jumla jahonga.

Zulmatlar bag'rini tilkalab o'tgan
Quyosh quchog'ida afsonam – Vatan.
O'tinch duolari falakka yetgan,
Qutlug' sajdagohim, ostonam Vatan.

Haq yo'li-xalq yo'li – istiqbol yo'li,
Bosgan qadamingdan yaralur bo'ston.
Davr-u davronlaring qaytgani chindur,
Bugun har go'shangda yangi bir doston.

Magar to'lqin kabi qalqisa bu el,
Farhodlar yaralur fidolaridan.
Shunchalar aziz va xislatli bu yer,
Temurlar yaralur duolaridan.

Tongdan shukronalar oq kabutarday
Dillar mehrobidan uchar falakka.

Faqat baxt yaratar bunda uygʻoq el,
Quyosh ham omin der bunday tilakka.

Haq zikri gullaydi nurli qalblarda,
Qaldirgʻoch hamd aytar boʻgʻotlarida.
Tongdan Goʻroʻgʻlilar posbon boʻlsa, tun –
Alpomish qoʻriqlar Gʻirotlarida.

Derlar, togʻ oʻsishin sezmaydi inson,
Ilgʻolmas choʻqqilar yuksalgan chogʻin.
Ammo butun olam guvohdir bu kun,
Qanday oʻsganligin ozodlik togʻin.

Seni Vatan degan nidolar asrar,
Haq oʻzi yoʻllagan fidolar asrar,
Ruhin shod etaver ajdodlaringni,
Behishtdan yoʻllangan duolar asrar!

KOʻNGIL TOMCHILARI

* * *

Derazamni chertadi yomgʻir,
Yuragimda mahzun-mahzun kuy,
Tomchi soʻzin tinglab oʻtirar
Kecha quyosh moʻralagan uy...

* * *

Har tomchida bir dard, har tomchi soʻzlar,
Yolgʻiz Haq biladi ul nomalarni.
Chaqmoqlar borliqni yoritib izlar,
Koʻzimdan toʻkilgan chuchmomalarni.

* * *

Mayli, bir zum qalamimga orom berayin,
Mayli, bu tun qalamim ham bir oz yumsin koʻz.
Sezayapman vujudim-la uning tushiga
Bu kecha ham soʻz kiradi, gullayotgan soʻz!

VATAN RANGI

Giyohlardan soʻrdim sening taʼrifing,
Kiyiklar koʻzidan oʻqidim doston.
Yulduzlar qoʻshigʻin tinglab uygʻondim,
Boshimda termulib oʻtirardi tong.

Quyosh yuragimga sochdi taftini,
Shundan qalbim seni angladi, sezdim.
Subhidam ochganda zamin kaftini,
Kaftdagi jannatda men masrur kezdim.

Gʻurraklar terakda chalar chanqovuz,
Koʻrdim yuzin suvga chaygan gullarni.
Zamin ulashardi har murgʻak dilga
Humo nigohidan tushgan nurlarni.

Ukamday siladim yashil maysani,
Singlimday suydim men qizgʻaldoqlarni.
Otamday chinorga qarab boʻyladim,
Kezdim mehri onam bogʻlarni.

Togʻlaring koʻnglimda tikladi gʻurur,
Suvlaring qalbimning yuvdi zangini.
Hatto chumolilar tilida shukur,
Men shundan angladim Vatan rangini...

YALPIZLAR BARGIDA QOLDI YOSHLARIM

* * *

Oshiq agar oh tortar, ul nola vola boʻlgʻay,
Xattot agar bitmishdur, vola risola boʻlgʻay,
Ishq sharobin ichgali qadah izlama, ey dil,
Dilbar labidagi ul lola piyola boʻlgʻay.

* * *

Begʻubor xayollar –iforli yalpiz
Koʻnglimni ezadi bagʻir toshlarim.
Yalpizli kunlarga qaytolmam, esiz,
Yalpizlar bargida qoldi yoshlarim.

* * *

Bagʻrimni pora qildi sochlaringning tolasi,
Soʻzlamogʻga jurʻat yoʻq, dilimda istihola.
Lablaringga bitilgan oyatni oʻqisaydim,
Kiprigim-la bitardim ishq degan bir risola.

* * *

Ishq yoʻlida Majnun boʻlib oʻtganlar bor,
Bol oʻrniga hajr zahrin totganlar bor.
Qor ostidan gul izlasam nima boʻpti,
Ayozida bahorini kutganlar bor.

UMID

Men o't edim,
Yomg'irlar yog'di,
Tomchilardan go'yo men so'ndim.
Bugunchalik ufqqa bosh qo'yib,
Erta esa quyoshday yonib,
Tongni kutib olmoqqa
Ko'ndim...

SOG'INTIRIB SOG'INMAGANLAR

Baxt orzusin tildan qo'ymaydi,
Dildan sevib, sevimaganlar,
Bu dard iztirobin bilmaydi,
Sog'intirib sog'inmaganlar!

Bu kun sizga qilgum arzimni,
Topolmadim sevib qadrimni,
Anglarmisiz mening dardimni,
Sog'intirib sog'inmaganlar!

Qalbingizda erisin muzlar,
Bahorlarga joy bersin kuzlar,
Tilingizda gullasin so'zlar,
Sog'intirib sog'inmaganlar!

Ko'zingizga shodliklar insin,
Labingizga kulgular qo'nsin,
Qalbingiz ham sevgiga ko'nsin,
Sog'intirib sog'inmaganlar!

Qahr sizga begona bo'lsin,
Rahm sizga hamxona bo'lsin,
Sizga ham ishq darsxona bo'lsin,
Sog'intirib sog'inmaganlar!

Bu hayotda suyish–saodat,
Ishq ko'yida kuyish – saodat,
Sog'inch hissin tuyish – saodat,
Sog'intirib sog'inmaganlar!

Yoringizni qiynamang buncha,
Ko'ngil o'zi nafis gulg'uncha,
Sog'ining siz sog'intirguncha,
Sog'intirib sog'inmaganlar!

Sog'inch ichra o'tmasin hech kim,
Ko'zi yoshli ketmasin hech kim,
Bor vujudi ko'zga aylanib
Yo'lingizda kutmasin hech kim.

Hijron dardi, ne, bilmaganlar
Sog'intirib sog'inmaganlar!

TAVALLO

Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Tursunoy Sodiqova

Goh yondirib o'tga otasan,
Goh ko'zimda qayg'u yoqasan,
So'ng qalbidan sen bol totasan,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Mendek kim bor, seni o'ylagan,
O'z-o'ziga ertak so'ylagan,
Nechun qiynaganing-qiynagan,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Ko'zimdagi yoshni ko'rmaysan,
Hijron otgan toshni ko'rmaysan,
Qachongacha qalbid o'ynaysan,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Majnunlardek sabrim yo'q mening,
Qoshingda hech qadrim yo'q mening,
Sevdim, o'zga aybim yo'q mening,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Boshim silab kelsang bo'lmasmi,
Yo ko'zlaring holim ko'rmasmai,
Va yo hech kim mendek sevmasmai,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Do'stim desam, qalbmni o'ying,
Azoblarim shodlikka yo'ying,
Yo jondan men va yo sen to'ying,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Ey ko'zlari olovli, otash,
Dalli dilim bag'ringga tutash,
Oshiq ko'rmay o'zimga o'xshash,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

Bir kun kelib sado bo'larman,
Yonib dard-u nido bo'larman,
Sen jim tursang, ado bo'larman,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men,
Muhabbatim, kiming bo'ldim men?!

BIZ HAM SEVGAN EDIK

I

Baxt chorlaysan, lek o'kinch-u g'am ko'p ekan,
Keksa dunyo sabr deydi, kutarkansan.
Bu olamda adashgan bir yo'lovchidek,
Sevsang, faqat umid bilan o'tarkansan.

Bu ochunda gullash nima – unutdi dil,
Ko'p sog'indim g'unchalarning kulgusini.
Kecham sog'inch, bugun, hatto ertam sog'inch,
Eshitaman yolg'iz yalpiz yig'isini.

Giyoh unmas ko'ngildagi tog'larimda,
Tafti yo'qdur ko'zimdagi quyoshimning.
Bulbullar chah-chahlamas dil bog'larimda,
Ko'klamlari unut bo'lgan bardoshimning.

Majruh ko'ngil go'yo yashin urgan daraxt,
Tanasida chumoli dard o'rmalaydi.
G'am lashkari erur go'yo kecha-kunduz
Ado bo'lgan bu vujudni yaralaydi.

Ey darvesh yel, holing ne deb so'rmading-a,
O'lan aytgan turg'aylar, jim xo'rsinasiz.
Yurakdagi chechaklarim, yalpizlarim,
Necha yilki nechun mendan berkinasiz.

Binafsha dil iforlari uchib ketar,
Yurakdagi yashillikni ko'madi qor.

Necha yilki, hanuz qayda, bilolmayman,
Vujudimga titroq solgan o'sha bahor.

Dunyo mendan yuz o'girdi, g'arib ko'ngil,
Qayda bahor, meni olib ketmaydimi?
Axir usiz qancha yashab qo'ydim mana,
Yolg'izligim, azoblarim yetmaydimi?

Bir dam yodga olmadi-ya meni, dunyo,
Bir umidim saqlagan dil tuprog'idir.
Xazon bo'lib yashadim men ajab, go'yo
Shu bir umid-vujudimning titrog'idir –
Yuragimning – so'nggi yashil yaprog'idir..

II

Har tun yolg'izlikning mungli kuylari
Poyonsiz ko'nglimga yoyila boshlar.
Bahorni qo'msagan qaldirg'och kabi,
Kiprigimga qo'nar sog'inch –ko'z yoshlar!

So'ngan xotiralar uyg'onar asta –
Xazonlar ostidan bosh ko'targan gul.
Sening yoding bilan umrim payvasta,
Sening yoding bilan yasharman butkul.

Tunning sochlarida yaltirar yulduz –
Umidsiz dunyoning umidi kabi.

Ko'ngil kuz, chor taraf xazon yaproq, kuz...
Titraydi qurigan atirgulo labi.

...O'sha xiyobonlar bo'm-bo'sh, kimsasiz,
Poyezdlar tark etgan bekatday g'arib.
Xotira jovdirab tentiydi, sassiz,
Tanish yo'lovchini tinmay axtarib...

Ortga qaytmas endi ketgan poyezdlar,
Sog'inchlar yo'l qarab ko'ngilga qaytar.
Nahot unut bo'lsa dildagi izlar,
Yurakda bir yigit sho'x qo'shiq aytar:

“Ey do'st, sevgan edik biz ham bir mahal,
Majnun maqomida edi dilimiz.
Endi xazonlarga ko'milib ketdi
Beg'ubor orzular, sevgi, sirimiz...”

Nega keldik axir, dunyosiga biz,
Sevgani, sevgani, faqat sevgani!
Bu yo'lda o'rtanib ado bo'larmiz,
Ado qilsa qilar, sevgi degani...”

Bir zum yongan bu dil lov etdi, o'chdi,
Uyg'ongan xotira ko'z yumdi yana.
Armonlar, sog'inchlar ko'ngilga ko'chdi,
Hamon azoblarga yurak boshpana...

* * *

Jondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz.

Alisher Navoiy

Ey gul, neki aziz erur,
Ondin azizroqsenga,
Nishtaring qonim oqizsin,
Qondin azizroqsenga.

Iqlimi Majnun ko'ngilga
Ishqki bir shon deydilar,
Shon debon yonmas-ku ko'nglim,
Shondin azizroqsenga.

Koinot bazmida sonsiz,
Sayyoralarki raqs etar,
Oyki- sen, ul songa boqmam,
Sondin azizroqsenga.

Kim gulga ko'ngil bog'lamish,
Erkalab "jon, jonim" demish,
O'ksima chun "jonim" demam,
Jondin azizroqsenga.

BIZNI UNUTDI

Netay, dil, bizlarni ul moh unutdi,
Ko'ngil ko'p talpingan nigoh unutdi.
Bu kun g'ofillikka solib o'zini,
Dard-u dunyomizdan ogoh... unutdi.

Ko'ngil mutribining sindimi sozi,
Sozni-da "Dugoh"u "Segoh" unutdi.
Uni sevish, ey dil, gunoh bo'lsa gar,
Ne tong, gunohkorin gunoh unutdi.

OY

Sen nazar qildingki, andin
Bag'ri butun, to'lmish oy.
Bir nigohdan ajib dildor,
Ajib zebo bo'lmish oy.

Ma'shuq diydorini qo'msab,
Ming kecha zor o'tgan bor,
Ming bir kechalar baxtin,
Bir kechada ko'rmish oy.

Baxt lahzasin tutib bo'lmas,
Afsus, o'tgaydir quvonch,
Olov bag'ri bu kun muzlab,
Rangi-ro'yi so'nmish oy.

Ko'kda baxtdan porlar edi,
Endi bag'ri dog'-u dog',
Mangu hijronda yashashga,
Yo meningdek ko'nmish oy...

SHE'R BILAN DUNYO GO'ZAL

Ko'hnadir dunyo azal,
Dilga ishq yor, yor g'azal,
Dardi Majnun mufassal –
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Cheksizdir ishq o'lkasi,
Aning yo'q chegarasi,
Oshiq ko'ngil nafasi –
She'r bilan ko'ngil go'zal.

U borki, umr shoyon,
Quyoshdan nur begumon,
Lavhing-bahoriy osmon–
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Mulki ishq fuqarosi,
Ko'ngilda Karbalosi,
Dard – iztirob a'losi,
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Ruhim birla suhbatda,
Ne sinoat rixlatda,
Bir diydor bor albatta,
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Shoir degan unvon bor,
She'rda ulug' ehson bor,
Kuylay to tanda jon bor,
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Demang dilning armoni,
Kuymishki, Haq farmoni,
Dardi hijron darmoni—
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Bu ko'hna dard vidodir,
Boqiy mahzun nidodir,
Sharhki –ishqi Xudodir,
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Shoirlik ishq, maqomdir,
Bu ko'ngil honaqodir,
Fanomas, dard baqodir,
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Ko'ngilning ahkomi bu,
Gohi subhi, shomi bu,
Azal soqiy jomi bu,
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Ishq ko'ngilga komdir,
Goh davo, intiqomdir,
Bir dardki bardavomdir,
She'r bilan ko'ngil go'zal.

Demang sharhi rivoyat,
Bu ishqdan bir hikoyat,
Boqiy she'r – nur, hidoyat,
She'r bilan ko'ngil go'zal,
She'r bilan dunyo go'zal!

* * *

Ishq-la meni aylading,
Bilmam, yo muborakbod,
Ko'nglingni yumshatdimu
Ko'nglimdan uchgan faryod.

Nega keldim dunyoga,
Bebahra bo'lsam ishqdin,
Bilsang, ishq-la hayotdir
Tashna bu odamiyod.

Osmon to'la yulduzlar,
Menga ko'zgudek boqar,
Betin aksing izlayman,
Ko'nglim qilmoq bo'lib shod.

Ruhim maylin anglolmay,
Sig'mas bu dil jismima,
Aytgil, o'zing ko'ksimda
Neni aylading ijod?

Qalamimdan to'kilar
Oq qog'ozga dard guli,
Marjonlarga aylanar
Yurakda uyg'ongan dod.

Shabbodalar tilida
Shiviringni eshitgum,
Nahot men g'aribingni
Bir lahza aylading yod?

Shu lahzalar hurmati,
Fido bo'lsam arziydi,
Oshiq dilga buningdin,
Ortiq bo'lgaymu imdod.

Endi qalbda ochilgan
Gulim so'lish bilmagay,
Bahorlarim qalbmida,
Gullab o'tgum umrbod.

* * *

Riyoga hech bormas dilim,
Dil istagin rizosiman.
Ishqim baland etmam izhor,
Dil shivirin sadosiman.

Derlar: bu ishq xaroboting,
Ado qilar bir kun seni.
Daryo dilim ummon sari-
Oqqan kabi adosiman.

Quyosh yuzin to'sgan abr
Nurga tashna dilda sabr,
Bu dayr aro ulki shamsning
Diydortalab gadosiman.

Ko'nglim ichra naqshim ishqdur,
Muhrim ishqdir, chekdim ani.
Obid ko'ngil, orif ko'ngil,
Oshiq ko'ngil imzosiman.

Nizomi ishq, kalomi ishq,
Salomi ishq ul ko'ngilning,
Derki ani Minhojiddin,
Menki, aning Mirzosiman.

TO'RTLIKLAR

Umr go'yo yonatgan sham,
Lahzalarda hayot kechadi.
Yo tonggacha yetar yog'dusi
Yo tonggacha erib ketadi...

* * *

Ming bir kecha tavallo qilib
Qalb dashtida ko'kartirdim so'z.
She'rdan menga nurli boqadi
Har bir harf go'yo mushfiq ko'z.

* * *

Kirlanish yerdandir, poklanish ko'kdan,
Gunohlar yerdadir afvlar Mavlodan.
Toki pok bo'lsin deb bu olam, jahon
Naysonlar yog'dirar bizga samodan.

* * *

Dil ko'rding, dillarning ayozlarini,
O'qiding goh lofdek bayozlarini,
Ba'zisi girdobday domiga tortar,
Kechib o'tsang bo'lar sayozlarini.

KETAYOTGAN KUNLARIM, XAYR

I

Xayrlashish vaqti keldimi, ul dam,
Kiprigimga qo'nmish chuchmomaday nam,
Ko'ngil nechun ma'yus, ko'ngilda ne g'am,
Shuncha tez o'tdimi ellik yil sayr,
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Sizdan ginam yo'qdir, sizga yo'q arzim,
Kulib kuzotolmam, bu mening qarzim,
Ko'nglimda qumrilar yig'lab qolsa ham,
Endi xayrlashmoq, ayrilmoq farzim,
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Sizda yashab o'tdim bedor kunlarim,
Ko'ksimda muhabbat kulgan tunlarim,
Goho yulduzlardan oshib ketdilar,
Falakni to'ldirib chekkan unlarim,
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Siz-la kechdi qancha farahli onim,
Xayr desa tilim, og'riydi jonim,
Qanday ko'nglingizni olsam ekan-a,
Ellik yillik mening aziz mehmonim,
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Go'yoki yil emas, oniy xushdaysiz,
Bir kechalik mehmon – qochqoq tushdaysiz,

Umrin daraxtiga bir lahza qo'nib,
Yana uchib ketgan yo'lchi qushdaysiz.
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Onam-la kechirgan onlarim sizda,
Otam-la kechirgan onlarim sizda,
Qanday qilib, ayting, qo'yib yuboray,
Qaytmay ketayotgan tonglarim sizda.
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Siz – sevgimga yolg'iz guvoh kaptarim,
O'zi sizsiz hamki bu ko'nglim yarim,
Qancha she'rlarimning tinglaguvchisi,
Ko'nglimni ko'chirgan o'shal daftarim.
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Do'stlar topdim tog'day suyanch bo'lgulik,
Oh desam, men uchun jonin bergulik,
Lekin bu hayot ham bir o'rmon ekan,
Bu ham odamzotning sho'ri, ko'rgulik.

Goho zahrin totdim gazandalarni,
Kalxatday, quzg'unday parrandalarni,
Yuragimda qancha tishin izi bor
Ko'nglimga chang solgan darrandalarni.

Qancha bezotlarga uchradim, yuzsiz,
Ularga hayf erur insonlik, esiz...

Shuncha dunyo kezib, dunyodan bezib
Men qanday yashayman, suyanchsiz, sizzsiz,
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

G'alati ekan bu tiriklik azim,
Goho tong, tunlarga qilarkan ta'zim,
Ko'nglingni chil-chil sindirgan kuni
Ko'ngilsizlar ajab boshlarkan bazm.

Besamar onlar-chun meni kechiring,
G'aflatli tonglar-chun meni kechiring,
Sevgidan visolmas, armonlar topdim,
Qalbdagi zanglar-chun meni kechiring...
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Nolisam, o'kinsam ayb bo'lgaydir,
Baxt kelsa, g'amlar ham g'oyib bo'lgaydir,
Sizni erkalatib, e'zozlash mumkin,
Qanday qilib sizni koyib bo'lgaydir.
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Ko'ngilga she'r zavqi kelgan kechalar,
Ko'ngil yulduzlarga to'lgan kechalar,
Siz bilan tonggacha qo'shiqlar aytdik,
O'ksigan baxtimiz kulgan kechalar.
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Mehrda bir shirin ahdlar topdik biz,
Beshikday muborak taxtlar topdik biz,

Kechikkan bo'lsa-da noumid ketmay,
Dunyoda dunyoday baxtlar topdik biz,
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Shukr, erk yo'liga chechaklar ekdik,
Ajdodlar yetmagan baxtga ham yetdik,
Siz bilan yelkadosh, hamdard do'st kabi
Qancha dovonlardan, yo'llardan o'tdik.
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Qancha quvonchlarim siz bilan ketar,
Qancha ko'z yoshlarim siz bilan ketar,
Menga ko'nglimdagi dog'larim yetar,
Menga ko'nglimdagi bog'larim yetar,
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr!

Xayr degim kelmas sizga sira ham,
Yo'q, yig'lamayapman, yo'q ko'zimda nam,
Otamni, onamni kuzatgan kabi,
Buncha qiyin ekan vidolashar dam.
Mendan ketayotgan kunlarim, xayr...

II

Hali tilimizda qancha she'r, kalom,
Umrimiz, lahzalar, etajak davom,
O'tgan kunlarda ham izzatimiz bor,
Kelayotgan kunlar, Sizga Assalom!

* * *

O'tdi umrim qanchasi
Dard aro, girdob aro,
Qanchasi tun, qanchasi
Dilrabo mohtob aro.

Dardlarim aytmay,
G'am-u anduhlarimdin so'zlamay,
Cho'lpon demakim ko'zlarim
Chaqnasa behob aro.

Izlar ersang sen meni
Izla yor gulzoridin
Izlama dardsiz ko'ngildek,
Shoyi-yu kimxob aro.

Do'st dedim yolg'iz Xudoni,
O'zgalarda yo'q vafo,
Shu sababdin izlama
Hargiz meni ahbob aro.

Anglamoq mushkul tuyulsa
Senga dard-u qismatim,
Sahfasin ochgil kitobim
Ko'r ani har bob aro.

Qo'y, meni u davralarga
Chorlama, yo'q hech xushim,
Qolg'on umrim o'tsa deyman
She'r aro, mehrob aro.

JAHON SHE'RIYATIDAN TARJIMALAR

A. S. Pushkin

Tumor

O'sha dengiz mavj urgan mangu
Yalang qoyalarning komida,
O'sha oydan oqqan taft-yog'du,
Tun zulmatin totli domida.

O'sha haram ichra lazzatda,
Sohib dillar boqqanda xumor.
Bir sohira erka, uyatda,
Tutdi menga sehrli tumor.

Erkalanib shivirlab shunda,
Asra, deya uqtirdi menga.
Dedi, sirli qudrat bor unda,
U sevgidan in'omdir senga.

Azizim, xavf solsa dard, qabr,
Bo'ron tursa yo kuchli to'fon.
Boshing uzra yog'ilsa jabr,
Yordam bermas, bil, tumor u on.

Va yo Sharqning tengsiz boyligin
Tuhfa qilmas senga atayin.

Payg'ambarlar sahobalarin
Poying uzra keltirmas tayin.

Qayg'uli yot yurtlardan olib,
Tumor seni do'stga yo'llolmas.
Bundan shimol sari yo'l solib,
Ona yurtning sari eltolmas.

Biroq bir kun makkora nigoh
Joy olmayin hali qalbingdan,
Maftun etsa zulmatda nogoh,
Sevmay turib o'psa labingdan.

Qalbni yangi jarohatlardan,
Ey azizim, ey do'sti yorim,
Unutish-u xiyonatlardan,
Seni shunda asrar tumorim!"

SHARQ BULBULI VA GUL

Ayni bahor chog'i, sarmast bir bulbul
Sayrar ishqqa to'lib betin, zor-u zor,
Sokin bog' qo'ynida, tun zulmatida
Atirgul vaslidin bo'lib umidvor.
Biroq u aziz gul na bulbul holin,
Na dard-u dunyosin anglamas, ko'rmas,
Allalanib sirli ishq ohangiga
Tebranar dard ila, uyg'otib bo'lmas.

Nega intilyabsan, sen ham ey shoir,
Sovuq go'zallikka bo'lgancha bandi?
Qarshingda tarovat taratgan gulga
Axir begonaday ishqning jarangi?
Aqling yig', ul bulbul kabi aldanma,
Seni maftun etgan u xilqat – sarob,
U sezmas shoirin, anglolmas qalbin,
Qancha nido qilma, kelmagay javob...

IQRORNOMA

Men sizni sevaman hatto g'azabda,
Garchi bu mushkulot, nomus va bekor.
Va bu aql ojiz bebaxt holatda,
Poyingizda turib bo'urman iqror!

Bu hol na suratim, siyratimga xos...
Vaqt keldi anglash-chun aql qadrini!
Bu barcha alomat oshiqlikka xos,
Sezyapman qalbdagi sevgi dardini:

Sizsiz onlar men-chun ma'nisiz, bekor,
Qoshingizda ma'yus topaman chidam.
Madorsiz qalbidan to'kiladi zor,
Qanchalar sevaman sizni, farishtam!

Mehmonxona ichra eshitilar boz
Ko'ylagingiz sasi, ohista qadam.
Allaqanday ma'sum, bokira ovoz,
To'satdan aql dan ozdirar bir dam.

Faqat kulgungizda tasalli va tot,
Gar yuz o'girsangiz ezadi sog'inch.
Azobli kun uchun menga mukofot-
Rangpar qo'llaringiz o'zi bir ilinj.

Siz beparvo, ma'sum nigoh-la ul on,
Bosh egib kashtaga chog'langan zamon,

Zarrin zulflaringiz tushmish-ku yuzga,
Men-chi iltijo-la, besas, jim, nolon,
Boladay mehr-la boqaman sizga!..

Sizga baxtsizligim sirin aytaymi,
Mening rashkim, asli, mening g'am-g'ussam.
Goh havo aynigan chog'da ataymi,
Nechun olislarni ko'zlaysiz, bekam?

Tanholikda o'sha siz to'kkan yoshlar,
Pana-panadagi dil rozlar necha.
Yana Opochkaga qilingan safar,
Va u fortopiano chalingan kecha?

Alina! Rahmingiz kelmaydi nechun,
Meni seving deya talab qilmasman.
Ehtimol, men qilgan gunohlarim-chun,
Farishtam, sevgiga loyiq emasman!

Meni sevgan kabi boqing, qiyinmas,
Ajib bu holatga qalbim ham tayyor.
Oh, meni aldamoq aslo mushkulmas,
Bunday aldanishdan bo'lgum baxtiyor!

J.G. Bayron

* * *

Endi tunlar sayri chorlamas tayin,
Garchi qalbda sevgi taratar chiroy.
Go'yo avvalgiday kumush nurlarin
Borliqqa ulashar tun sohibi oy.

Har gal sug'rilganda qilich yer qinin,
Qalb ham har og'riq-la vujudni ezar.
Abadiy yonmoq ham axir imkonsiz,
Yurak ham sokinlik istagin yozar.

Mayli, sevgi to'la nur ila takror
Oy yerga talpinsin, bari behuda.
Endi sayr etmasmiz kechalar bedor,
Oy kumush nur sochgan zulmat qo'ynida.

Genrix Geyne

VIDOLASHUV

Saqoqush misoli senga ichirdim
O'z qonim bajonidil aylab ravo.
Minnatdor so'z aytding, lek men o'kindim,
Sen yovshan-u og'u tutding beparvo.

Yomonlik qalbingga yot edi har dam,
Lekin injiq hisga qilib itoat,
Har lahza sen baxtga bo'lmayin hamdam,
Parvosiz qolmoq-chun toparding toqat.

Alvido! Sezmassan, kelmas u navbat
Tentagim, ko'z yoshim, dilda arzimni.
Xudo ato etsin, senga toabad—
Kulib yashamoqni, sezmay dardimni!

SHOSHMANG

Kuylaganim uchun porlab, yarqirab
Bu san'at ko'nglimga baxsh etgan-chun tot.
O'yladingiz, balki, solib qaldiraq
Tahdidli gumburlash go'yo menga yot?

Shoshmang, vaqti kelur, bo'lur namoyon
Qalbim o'tli nafas, olovga to'lib.
Yuksakdan gumburlab sas kelur shoyon,
Chaqmoqdek she'rlarim zarbasi bo'lib.

Tik bo'lib emanni g'olib yo'l boshlar,
Asov zardam dahshat solib u soat.
Saroy minorlarin silkitib tashlar,
Qancha ehromlarga yetur talafot!

* * *

Nima qilib qo'yding, azizim,
Bilmas olam bu ko'ngil sirin.
Hasratimni dengiz bo'yida
Baliqlarga aytdim yashirin.

Dog' tushurmam sha'ningga, garchi
Xiyonating yurakka yetdi.
Ammo uning mash'um xabari
Ummon bo'ylab tarqalib ketdi...

M. Y. Lermontov

...GA

Taqdir, tasodifan uchrashdik mana,
O'zimizni topdik bir-birimizdan.
Dil dil-la do'stlashdi, qachondir yana,
Ajratsa-da taqdir yo'llarimizdan.

Bahor toshqinlarin shiddati shunday,
Yoritar u moviy osmon toqini.
Sokin suv sathida yarqirar kunday,
Titraydi bo'ronli mavjda yolqini.

O, kelgil, sen mening bo'lgil osmonim,
Do'sti bo'l haybatli to'lqinlarimning.
Mayli, o'rtamizda mavj ursin jonim,
Yasholmam, chorlamay chaqinlarimni.

Asli tug'ilganman bu olam bir zum
Ko'rsin deb tantanam, halokatimni.
Lekin sen nurim bo'l-yo'lchi yulduzim,
To'xtatolmas hech kim shijoatimni.

Chikoradir menga maqto'v, xushomad,
Hissiz odamlarning hissiz kulgusi.
Ularga boqmoqlik ayanchli g'oyat,
Ular-chun begona dilning qayg'usi.

Shoir ko'nglin ular hech vaqt anglolmas,
Tushunolmas zavqin, g'am-u hasratin.
Uning qalbin qalb-la aslo sevolmas,
Hech qachon anglolmas shoir qismatin.

* * *

Totli bo'salarda deya bilardim,
Baxtli hayotimning siri shunda jo.
Endi men bu baxtdan butkul charchadim,
Endi men hech kimni sevmasman aslo.

Bir paytlar ko'zimda yosh-la bilardim,
Sokin oqqan hayot men-chun tantana.
Lekin u damlarda sevib qo'msardim,
Endi-chi, hech kimni sevmayman yana.

Yillarim hisobin yo'qotdim go'yo,
Unutib qanotli bor niyatimni.
Olib ketmog'i-chun yuragim tutgum,
Baxsh etib ularga abadiyatimni.

Sergey Yesenin

“BU KO'CHA MENGA TANISH...”

Qadrdon bu ko'cha tanish men uchun,
Pastakkina kulba neni eslatar?
Tom uzra to'shalgan poxollar har kun
Deraza ustida osilib yotar.

O'tdi qancha-qancha yillar to'zoni,
Esladim qishloqning bolalarini.
Asov va telbavor damlar suroni,
Murg'ak onim zangor dalalarini.

Qiynamadim shuhrat deya o'zimni,
Umri yo'q o'tkinchi bu shuhrat sasin.
Hozir ham entikib yumsam ko'zimni,
Ko'raman men yolg'iz otam kulbasin.

Shabnam ko'zqusida tovlanadi bog',
Avgust chetan uzra yonboshlab yotar.
Arg'uvonning yashil kaftida bu chog'
Qushlar shovqini ham ko'ngilga yoqar.

Sevardim, qishlog'im, uyni qanchalar,
Yog'ochlarda haybat miltirab shunda.
Yovvoyi pech dilga vahima solar,
Uvillab chiqardi yomg'irli tunda.

Yig'iday cho'chitar bu ovoz meni
Azador g'am sasi guvillashida.
Nortuyadek u pech ko'rdiykin neni
O'sha yomg'irlarning uvillashida.

Olis o'lkalarni aniq ko'rdi u
Gul fasllar tushin, bari-barini.
Ul Afg'on zaminin zar qumlari-yu
Buxoroning shaffof bulutlarini.

Oh, bu o'lkalar ham menga qarddon,
Necha yil beadoq yerlarni kezdim.
Faqat u mo'tabar o'lkamga bu on
Qaytmog'im kerakdir, men shuni sezdim.

Yoqimli mudroqlar tark etdi meni,
Bari yonib bitdi, kul bo'ldi bu dam.
Ey dala poxoli, sog'indim seni,
Doim bor bo'l, mudom ey yog'och kulbam!

GO'ZAL TUN

Qanday go'zal tun, chidolmam, netay,
Uyqum ham kelmagay oydin kechada.
O, o'tgan yoshligim qanday unutay,
Yo'qotdim men umrim o'tgan ko'chada.

Ey, so'ngan yillarim aziz hamrohi,
O'yinni ishq deya atama, qursin.
Yaxshisi, u o'yning nuri – dard ohi
Yostig'im ustiga quyilib tursin.

Mayli, u o'zgargan hislarni birdek,
Dadil ta'riflasin, bo'lsa ne zohir.
Xuddiki sen sevib qolmaganingdek,
Yomon ko'rmog'ing ham mumkinmas axir.

Faqat yashash mumkin bir bora sevib,
Qalb uchun begona endi u zorlar.
Ul oppoq bag'riga hislarni ko'mib
Arg'uvon bizlarni behuda chorlar.

Axir bilasan-ku, bo'lmas ishonib
U o'yning nurimas, yolg'on ziloldir.
Arg'uvon shoxida turgan tovlanib-
Gullarmas, muz qotgan qor-u qirovdir.

Allaqachon sevmay qo'yganmiz, diltang,
Sen meni, men esa o'zgani, shu-da.
Shu bois ikkimiz uchun ham bilsang,
Qadsiz ishq o'yin endi behuda.

Gar shunday bo'lsa-da, kel, seni o'pay,
Erkala, quchoqla aldab yurakni.
Endi men abadiy tush ko'rib o'tay
O'sha men bir paytlar sevgan malakni.

Yakub Kolas

XAYRLASHUV

Sokin edi borliq, yoyilar oqshom,
Quyug'lashar bunda tun-soyalar ham.
G'amgin u dalalar boqar beorom,
Chayqalar o'rmonlar-intiq bir olam.

O'sha kekxa o'rmon orqali o'tar
Bizning yo'llarimiz, oldda cheksizlik.
Bosh uzra -zangorlik chayqalib yotar,
Ko'ring, ana qayda hurlik, erkinlik.

Qop-qora bulutlar izma-iz suzar,
Borliqni qurshagan bunda mahzunlik.
Dillarni shu tarzda anduhmi ezar,
Shu yo'ldan kelardik g'amgin ikkimiz.

Yo'l chetida besas qarag'aylar qator,
Archalar ko'k sari intilmish sassiz.
Qo'l kabi shoxlarin madorsiz, nochor
Silkolmasdi shavqsiz, sokin, shovqinsiz.

Ikkimiz shu yerda unsiz xushlashdik,
Ayrilgim kelmasdi, azizam, sira.
Shu zangor ochunda sen-la ajrashdik,
Yashirinding yam-yashil u o'rmon ichra.

Navnihol archalar, qarag'aylar guvoh,
Oqqayinlar hamdard, erir bardoshlar.
Bag'rim bu lahzaga ko'narmikin, oh,
Ko'zlarimga qalqir alamli yoshlar.

O'grilib qaradim... Yonardi yurak,
Boshim uzra sokin taqdir qamchisi.
Faqat oppoq qayin shivirlar tilak,
Tomni chertgan kabi yomg'ir tomchisi.

Kuzning namchil o'sha g'arib oqshomi,
Kechdi zulmat ichra uning har oni.
U munis chehrani yutdi tamomi,
Mendan olib ketdi aziz siymoni.

OY

Yer uzra samoning sokin toqida
Ohista kezarkan taratib chiroy.
U olis tilsimli ko'k dargohida
Nelarni ko'ryapsan, aytgil, tanho oy?

Ko'rganing odamlar achchiq ko'z yoshi,
Misli tonggi shabnam duv-duv to'kilmish.
Tumanga asirdek o'y-u bardoshi,
Alam-iztirob-la betin sochilmish.

Tolesiz, och-nahor elni uyg'otgil,
Zulm ezar tog'ni ham ortgandek tanga.
Bizning g'amlarimiz ko'k uzra otgil,
Toki butun ma'vo olsin alanga.

Rasul Hamzatov

BULBUL QO'SHIG'I

Bulbul qo'shig'ini tinglayapsanmi,
Unda yangrayotgan tantana tinmas.
Nima haqda kuylar, anglayapsanmi,
Ammo noma'lumdir, hech kimsa bilmas.

Iymonim komildir, ishonch-la aytgum,
Vatan haqidadir bu qo'shiq-bonglar.
Agar o'zga mavzu bo'lganda, shaksiz,
Joniga tegardi allaqachonlar.

TURNALAR

Shundayin tuyular ba'zan, askarlar-
Qonli jangdan qaytmay, jon nisor etgan.
Qachonlardir yerga qo'yilmay ular,
Oppoq turnalarga aylanib ketgan.

Uchib o'sha olis vaqtlardan buyon,
Toki shu kungacha chorlaydi, balkim.
Shundan bo'lsa kerak ko'kka boqqan on,
Ma'yus o'ylar ichra qolmog'imiz jim?

Bugun ham kuzatdim, oqshomgacha lol,
Tumanlar azmida qilganday nido.
Daladagi saf-saf odamlar misol,
Uchib o'tdi qator, dilimda vido.

Olislarni ko'zlab borarkan, tinmay
Kimning ismin aytib chorlar yo'liga.
Nolishin eshitib nega o'kinmay,
Qanchalar o'xshash u avar tiliga?

Uchishar, uchishar, horishib juda,
Kun botar, tumanni yorib misli yoy.
Bir kichik bo'shliq bor ular safida,
– Men-chun atalgandir balki o'sha joy!

Qachondir, payt kelar, tumanda ayon,
Turnalar safida ketgum u kunda.
Zamindagi barcha do'stlarim shoyon,
Qush tilida ko'kdan chorlagum shunda.

ONALARNI ASRANG!

Kuylayman, yangidan mangu qo'shiqni,
Garchi madhiya deb bilmasman buni.
Lekin qalbim ichra tug'ilgan so'zlar
Topajak o'z kuyin, o'z ohangini.

Mening irodam-u izmimga yurmas,
Tevarak kengayar, yulduzlar kular.
Shodlik va iztirob dard-u ohangi
Sozlar to'lqiniday qalbnı to'ldirar.

Lekin ilk bor uni tilga olgandek,
Aytgum mo'jizakor bu yorug' so'zni.
Turing, o'lganlar-u, turing, tiriklar,
Turing, jo'shqin yoshlar, baxsh eting o'zni!

Turing, asriy o'rmon qarag'aylari,
Turing, ey maysalar ko'kka yuksalib.
Turing, barcha gullar! Turing, ey bog'lar,
Turing osmonlarnı kaftda ko'tarib.

Tik turib hammangiz tinglang so'zlarim,
Bir so'z bor muqaddas, bir so'z bor hargiz.
Bu munavvar, qadim, eng go'zal so'zdir,
Qaddingizni tuting, turing... barchangiz!

Go'yoki o'rmonlar tongni kutgandek,
Sabzalar quyoshga intilgandek zor.
Barchangiz turingiz bu so'zni tinglab,
Negaki, bu so'zda mehr, hayot bor.

Bu so'z-ezgu da'vat, bu so'z – iltijo,
Bu so'zda pok qalb bor, qiyossiz bekam.
Unda mujassamdir ilk ong uchquni,
Go'dak ilk kulgusi, tabassumi jam.

Bu so'z doim baland, barhayot bo'lsin,
Uyg'onsin bu so'zdan tosh yurak, tosh jon.
Barcha to'siqlarnı parchalab o'tsin,
Uyg'onsin bu so'z-la bo'g'ilgan vijdon.

U so'z aldamaydi, unda yo'q yolg'on,
Unda ibtido bor, toparsiz o'zni.
Unda hayot mavjud, yo'qdir intiho,
Turinglar, aytaman endi bu so'zni.

Ming bor hayajonda lab ochgum yana:
"Bu so'z eng muqaddas so'z erur-Ona!"

* * *

“To‘rt fasl qor quchgan tog‘lar bag‘riga,
O, tog‘ burgutlari, ne chorlar sizni?”
“Taft va ne‘mat izlab kelmasmiz bunga,
Yuksaklik, erkinlik tortadi bizni!”

“Sizni nima tortar, vatandoshlarim,
Bu asov tabiat ne berar yakto?”
“Biz ne‘mat, saxovat izlab kelmadik,
Yuksaklik bizlarga erk qilur ato!”

HAYKAL

Qo‘shiqlardan haykal qo‘ydim o‘zimga,
Garchi yassi tog‘-u toshdan balandmas.
Toki tog‘lik o‘lkam oshiq so‘zimga,
Bu haykalni hech kim kelib buzolmas.

Tog‘lar uzra bo‘ri kabi uvlagan,
Shamol-u qor, yomg‘ir, issiq pisandmas.
Tirik chog‘im tog‘lar edi taqdirim,
Endi ular taqdiriman har nafas.

Men yoqqan u olov o‘chmas toabad,
Tog‘lik ayol umidiga berib zeb.
Niyat qilar ismim qo‘yib o‘g‘liga,
Shu go‘dak ham bir kun shoir bo‘lsin deb.

Vaqt oqimi daryodagi tosh misol,
Silliqlolmas ismim, yozmish bisotim.
Hech kim she‘rim nusxasini bitolmas,
Har satr aro sirim, bori hayotim.

Sizdan ketsam olis yo‘lga otlanib,
Alvido, deb hech kim qaytmas tomonga.
Ko‘kda ma‘yus uchgan turnalar sozi,
Balki u kez yodim solar har jonga.

Davr kabi men ham ko'p bor tovlandim,
Goho silliq aylana, uchqur paykon.
Aql emas, dil bilan baland yondim,
Ko'nglim amrin rad qilmadim hech qachon.

Hali qancha dillar undan taft olar,
O'chmagaydir yurak yoqqan bu chiroq.
Faqat ta'na ko'zi-la menga boqmang,
Falak berdi, ko'pin olmadim biroq.

Ham tutmadim soxta qahramon yo'lin,
Razillik-la olishdim tinmay har on.
Tog' sozi-la kuyladim ul noma'lum-
Ovulimni tanidi butun jahon.

Mayliga, mag'rur fin, mayliga qalmiq,
Mayli, eslamasin – qismatimdir shu.
Lekin tog'liq xalqim qo'shiqlarim-la
Ona tilin saqlab yashaydi mangu.

She'riy xaritada mening orolim,
Haybatli zulmat yo'q qilolmas to'lib.
To bu jahon ichra bitta avar bor –
Yashayman men uning qo'shig'i bo'lib!

MUNDARIJA

She'r o'zi nimadir.....	3
Qizg'aldoqlar, yig'lamang, kuling	4
Shivirlama, shabboda.....	5
Patqalam	6
Vatan nadur	9
Ko'nglim	10
Ey she'riyat	12
Bu jon nadir.....	13
Qish ertagi.....	14
Orzudagi muhabbat	15
Ko'ngil sog'inchi.....	17
Ko'ksimga yashirdim bir dil suratin	18
Sog'inch	19
Vido.....	20
Ruh	21
Abdulla Oripov maktabi.....	22
Xiva osmonidagi turnalar	23
Kuz xayollari.....	24
So'zim	26
Boqiy she'riyat.....	27
Chavandoz.....	28
Quyosh.....	31
“Ko'ngil musavvirin yerdan izlama...”	32
Bu dil birla... ..	37
“Andijonda...”	39
Andijon bu – sizsiz, onajon	41
Yulduzim	43
Onam ekkam rayhonlar	45
Iltijo.....	47
Beorom tun.....	49

Ket.....	50
Kuz.....	51
Uygʻonish iztirobi.....	52
Hayoli sogʻinchlar.....	54
Sehrli kecha.....	56
Ey gul.....	57
Menmi.....	58
Kel, gulyuz.....	59
Gullash payti keldi, bogʻlarim!.....	60
“Xayr” dema.....	62
Bahor boʻlib kel.....	63
Qayga shoshilasan.....	65
Yomgʻir yogʻar.....	66
Tasodif.....	67
Kiprikdagi kurtaklar.....	68
Hayot sabogʻi.....	68
Sadoqat.....	71
Kiber oshiqlar.....	72
Ey doʻst.....	76
Suv uzra oy akslanar.....	77
Soʻz.....	77
“Surating...”.....	78
“Haq amrini...”.....	79
Fasohat gulshani (<i>Faxriya</i>).....	81
Navoiy xazinasini.....	86
Shoir abadiyati.....	88
Bogʻ-u bahorim.....	89
Koʻngil tomchilari.....	91
Vatan rangi.....	92
Yalpizlar bargida qoldi yoshlarim.....	93
Umid.....	94
Sogʻintirib sogʻinmaganlar.....	95

Tavallo.....	97
Biz ham sevgan edik.....	99
“Ey gul...”.....	102
Bizni unutdi.....	103
Oy.....	104
Sheʻr bilan dunyo goʻzal.....	105
“Ishq-la meni...”.....	108
“Riyoga hech...”.....	110
Toʻrtliklar.....	111
Ketayotgan kunlarim, xayr.....	112
“Oʻtdi umrim...”.....	116

Jahon sheʻriyatidan tarjimalar

<i>A. S. Pushkin.</i>	
Tumor.....	117
Sharq bulbuli va gul.....	119
Iqornoma.....	120
<i>J.G. Bayron.</i> “Endi tunlar...”.....	122
<i>Genrix Geyne.</i> Vidolashuv.....	123
Shoshmang.....	124
“Nima qilib...”.....	124
<i>Lermontov</i> ...ga.....	125
“Totli boʻsalarga...”.....	126
<i>Sergey Yesenin.</i> “Bu koʻcha menga tanish...”.....	127
Goʻzal tun.....	129
<i>Yakub Kolas.</i> Xayrlashuv.....	131
Oy.....	133
<i>Rasul Hamzatov.</i> Bulbul qoʻshigʻi.....	134
Turnalar.....	135
Onalarni asrang!.....	136
“Toʻrt fasl...”.....	138
Haykal.....	139

Adabiy-badiiy nashr

MINHOJIDDIN MIRZO

MUHABBAT, QARSHINGDA
BU JONIM NADIR

She'rlar

Muharrir: *Dilrabo Mingboyeva*


Badiiy muharrir: *Farrux Ermatov*

Sahifalovchi: *Azamat Qayumov*

Musahhah: *Dilfuza Mahmudova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
«ADABIYOT NASHRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

 (+98) 128-30-04.

Bosishga 20.02.2021-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 0.0. Shartli b.t. 0.0.

Adadi: 2000 nusxa. Buyurtma №

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.